

BIR BO'LSAK — YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK — VATANMIZ!

www.mv-vatanparvar.uz



VATANPARVAR

YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta n chiqa boshlagan ● 2024-yil 23-avgust, №34 (3096)



SINOVLARDA TOBLANGAN
DO'STLIK

10

KO'NIKMA VA MAHORAT
SHAKLLANDI, TAJRIBA
BOYITILDI

4-5

TERMIZ HARBIY
GOSPITALI YANGI
QIYOFADA

2

VATANGA QALQONMIZ, TINCHLIKKA POSBON!



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya



Termiz harbiy gospitali yangi qiyofada

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yanada yaxshilash uchun yildan yilga harbiy qism tibbiyot punktlari, harbiy gospitallar qayta ta'mirlanib, zamonaviy tibbiy jihozlar va asbob-uskunalar, eng malakali mutaxassislar bilan butlanmoqda.

Mustaqilligimizning 33 yilligi bayrami arafasida Termiz harbiy gospitali ham o'z faoliyatini butunlay yangi qiyofada boshladi.

Davlatimiz rahbarining harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish borasida qo'ygan vazifalaridan kelib chiqib, Termiz harbiy gospitali infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasi takomillashtirildi. Davolash-dagnostika bo'limlari eng so'nggi rusumdagi tibbiy asbob-uskunalar, mobil tibbiy komplekslar bilan ta'minlandi, ish jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari, yuqori texnologik davolash va tashxis qo'yish, tibbiy rehabilitatsiya usullari joriy etildi.

Ayni paytda 200 o'rinli davolash sig'imiga ega gospitalning 14 ta davolash va diagnostika bo'limida 32 nafar shifokor, 110 nafar o'rta va kichik tibbiyot xodimi faoliyat olib bormoqda.


Gospitalning tibbiyot mutaxassislari zamonaviy tibbiy jihozlaridan foydalangan holda yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarini o'tkazishlari uchun 5 ta operatsion zal kecha-yu kunduz tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Endilikda Sog'liqni saqlash vazirligi va xorijiy davlatlar mutaxassislari jalb etgan holda yuqori texnologik va kaminvaziv jarrohlik amaliyotlari hamda davolash diagnostika ishlarida hamkorlik qilishi belgilandi. Shuningdek, tadqiqotchilarning harbiy tibbiyot sohasida ilmiy izlanishlar olib borishlari hamda Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialining V-VI bosqich talabalari amaliyot o'tashlari uchun ham barcha sharoitlar yaratildi.

Real jang maydoni effektini beruvchi maxsus o'quv xonasida



Bahrom ABDURAHIMOV




tashkil etiladigan mashg'ulotlarda harbiy mojarolar vaqtida harakatlanish, jarohatlangan harbiy xizmatchilarga tez va aniq tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalari egallanadi.

Gospitalda mustaqil kislorod ishlab chiqarish stansiyasining barpo etilgani, jarrohlik amaliyotlarini telemeditsina orqali kuzatish va maslahat beruvchi amaliyot xonalarining tashkil etilgani ham tashxis qo'yish va davolashning yangi usullarini o'zlashtirish hamda qo'llash orqali bemorlarning qisqa muddatlarda shifo topib, oyoqqa turishlarida muhim o'rin tutadi, albatta.

Qisqacha aytganda, zamonaviy tibbiy uskuna va texnika bilan qayta jihozlangan Termiz harbiy gospitali mamlakatimiz janubida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar uchun o'ziga xos bayram tuhfasi bo'ldi. Bu ishlarning barchasi davlatimiz rahbariyati tomonidan Vatan himoyachilarining salomatligini mustahkamlashga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rliklar namunasidir.

Umrga tatigulik lahzalar

Har gal mutasaddilar bilan fuqarolarning murojaatida qatnashar ekanman, mushkullari hal bo'lib, yuzlari quvonchdan porlab chiqib ketayotgan yurtdoshlarimizni ko'rib, behad xursand bo'laman. Bir qarashda qabul qiluvchilarning muloqot uchun 3-4 daqiqa vaqti ketgandek tuyular, lekin rostini aytish kerak, aksariyat hollarda bu hodisa fuqarolarning hayotida chin ma'noda burilish yasashi, bir umrga tatigulik quvonch olib kelishi turgan gap.



Mudofaa vazirining o'rinbosari genaral-mayor Hamdam Qarshiyevning tegishli bosh boshqarma va boshqarma boshliqlari bilan birgalikda o'tkazgan navbatdagi qabuli ham ana shunday quvonchli voqealarga boy bo'ldi. Umid bilan kelgan fuqarolar, harbiy xizmatchilar o'zlarini qiynab kelayotgan muammolar, anchadan beri yechimini kutayotgan savollar, ariza va takliflari bilan yuzlandi.

Tabiiyki, muammolar, murojaatlar turlicha. Biri ijtimoiy himoya, boshqasi tibbiyot yoki uy-joy bilan ta'minlanish borasida, harbiy xizmatga qayta tiklash masalasida murojaat qilganlar ham uchradi, albatta. Xizmat joyini boshqa hududga o'zgartirish ilinjidagilar ham bor.

Ularning murojaati har tomonlama o'rganib chiqilib, amaliy yordam ko'rsatildi. Chigalliklarga yechim topilib, savollarga atroflicha javob berildi.

Shu tarzda juda ko'plab yurtdoshlarimiz oila davrasiga xursandchilik bilan qaytishdi. Bularning barchasi harbiy xizmatchilarning xotirjamligiga, oilaviy munosabatlarning mustahkamlanishiga, shu orqali yurtimiz osoyishtaligining ishonchli ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Mayor Aziz NORQULOV,
"Vatanparvar"

Yangi xonadon kalitlari o'z egalariga topshirildi

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 33 yillik bayrami arafasida Sirdaryo viloyati Guliston shahri Ma'naviyat mahallasida Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilariga imtiyozli ipoteka kreditlari asosida yangi xonadonlar foydalanishga topshirildi.



Bu voqea kecha-yu kunduz halovatidan ayrilib, mamlakatimiz tinchligi yo'lida fidoyilarcha xizmat qilayotgan yurtimiz himoyachilari uchun chinakam bayram sovg'asi bo'ldi, deyish mumkin.

Tadbirda Toshkent harbiy okrugi qo'mondonligi, Sirdaryo viloyati hokimligi, viloyat kuch tuzilmalari vakillari, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Sirdaryo viloyati kengashi,

faxriylar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirok etdi.

Toshkent harbiy okrugi qo'shinlar qo'mondoni polkovnik Zokirjon Sayfutdinov so'zga chiqib, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan so'nggi yillarda Vatan himoyachilarining ijtimoiy himoyasi borasida juda katta islohotlar olib borilayotganini, jumladan zamonaviy dizaynda, barcha

qulayliklarga ega bo'lgan uy-joylar foydalanishga topshirilayotganini alohida e'tirof etdi.

Baxtli xonadon sohiblariga yangi xonadon kalitlari topshirilib, ularga eng ezgu tilaklar bildirildi.

Toshkent harbiy okrugi
matbuot xizmati



KO'NIKMA VA MAHORAT SHAKLLANDI,

Adir bo'ylab tog' tomonga chiqib borar ekanmiz, dimog'imizga kuz nafasi urildi. Qir-adir sariqlikka burkangan, xazonrezgilar orasida hali qurishga ulgurmagan, yam-yashil o'tlarning yashab qolishga intilayotgani kishi ruhiyatiga qat'iyatlilik bag'ishlaydi. Tabiatning bu ajib hodisalari insonlarga maqsadi sari olg'a qadam tashlashida turtki bo'layotgan bo'lsa, ne ajab?!



Mashg'ulot rahbarining ko'rsatmalari asosida vazifasiga kirishgan harbiy xizmatchilar belgilangan nuqtalarga joylashish uchun shaylanayotgan paytda tabiatga oshno bo'lgan shirin xayollarim ham ular singari tarqalib ketdi. "Angren" umumqo'shin tog' poligonida harbiy xizmatchilarning navbatdagi o'quv mashg'ulotlari shu tariqa boshlandi.

Shaxsiy tarkibning o'ziga ajratilgan harbiy texnikalari shay holatga keltirilgan va "boshla" ishorasi bilan barcha birdek harakatlandi. Avval shartli nishongacha bo'lgan masofa kuzatuv uskunalari orqali aniqlandi hamda yig'ilgan ma'lumotlar asosida nishonga qarata o't ochildi.

Kichik guruhlariga bo'lingan harbiy xizmatchilardan tezkorlik, aniqlik va epchillik

talab qilinadigan mashg'ulotlar ofitserlar tomonidan kuzatib borildi.

– Bugungi o'tkazilayotgan dala-o'quv mashg'ulotlarimizda asosiy e'tiborni har bir harbiy xizmatchi bilan individual ishlashga qaratganmiz. Qolaversa, "Ustoz-shogird" an'anasiga sodiq qolgan holda, yosh harbiylarimizning nazariy bilimlari amaliyotda toblanishi, ko'nikma hosil bo'lishi uchun tajribali ofitserlar bilan birgalikda harakatlar olib borilmoqda, – deydi podpolkovnik Farhod Ro'ziqulov. – Bunday mashg'ulotlar harbiy xizmatchilarning moslashuvchanligini mustahkamlash bilan bir qatorda, jangovar qurollardan mohirona foydalanish mahoratini oshiradi.

Mashg'ulotlarning asl mohiyati yurt himoyachilarining faqatgina nishonga o'q otishidan iborat bo'lib qolmay, tabiiy sharoitlarga yaqin qilib yaratilgan universal to'siqlar yo'lagi orqali betalafot va epchillik bilan o'tishdek shartlar ham o'rin olgan. Yurtimizning tog'li hududlari turli landshaftlardan





Muallif suratga olgan

TAJRIBA BOYITILDI



iboratligini inobatga olsak, yurt posbonlari faoliyatida ham jismoniy, ham ruhiy matonatning nechog'li zarur ekaniga amin bo'lamiz.

– Qaysi bo'linmada bo'lishimizdan qat'i nazar, albatta, universal yo'laklardagi to'siqlardan o'tamiz, – deydi kapitan Farrux Xo'jayev. – “Angren” umumqo'shin tog' poligonida har bir bo'linma uchun alohida shaharcha tashkil etilgan. Biz ham bo'linmamiz bilan o'zimizga ajratilgan o'quv joyida mashg'ulot o'tkazmoqdamiz. Shunisi aniqki, universal yo'laklardagi to'siqlardan o'tish harbiy xizmatchining irodasini toblaydi. Qolaversa, o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Mana, bir necha kundan buyon dala-o'quv mashg'ulotlarini o'tkazyapmiz. Bu vaqt mobaynida bo'linmamiz bilan o'zimizga kerakli bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirdik. Eng asosiysi, jamoaviy ishlash jarayonlarida bunday mashg'ulorlarning o'rni beqiyos. Harbiy xizmatchilar tomonidan o'tkazilayotgan dala-o'quv mashg'ulotlari turli nuqtalarda davom etdi. Har bir bo'linma o'ziga yuklatilgan vazifani a'lo darajada uddaladi.

Quyosh ham cho'qqining ortiga botib borar ekan, qosh qorayishiga qaramay, harbiy xizmatchilarning tungi mashg'ulotlari davom etardi...

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”



KASBINI ULUG'LAGAN SAMO LOCHINLARI!

Kindik qoni to'kilgan zaminning haqiqiy qo'riqchisi bo'lish, egnidagi harbiy libosning yuki, kasbining sharafi, mas'uliyatini bir lahzaga bo'lsa ham unutmastik, o'z burchini sadoqat bilan ado etish harbiy xizmatchilarga xos fazilatlar. Bu kasbni tanlagan insonlar kerak bo'lsa, tinch-osuda hayotimizning har bir kuni, har bir soatida har birimizning daxlsizligimizni ta'minlash uchun jonini fido qilishdan tap tortmaydi. Bunday yurt fidoyilari kimgadir tanilish yoki nom qozonish uchun shirin jonidan, oilasi halovatidan kechmaydi. Shuning uchun harbiy xizmatchilar hamisha Vatan himoyachilari sifatida ardoqlanadi.

Hozirgi kunda har bir davlat o'zining havo flotiga ega va u asosan fuqaro aviatsiyasi va harbiy havo kuchlariga bo'linadi. Jumladan, mamlakatimizda ham. Har yili avgust oyining uchinchi yakshanbasi O'zbekiston havo floti kuni sifatida nishonlanadi. Mudofaa vazirligi Harbiy havo kuchlari va Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari harbiy xizmatchilari ham bu kunni o'zlarining kasb bayrami sifatida nishonlashi o'ziga xos an'anaga aylangan. Milliy armiyamiz tashkil etilgandan buyon shu paytga qadar turli islohot bosqichlarini bosib o'tgan soha mutaxassislari Vatanimiz havo sarhadlarini qo'riqlashdek mas'uliyatli vazifani bajarib kelmoqda.

Artilleriyachi, tankchi, desantchi, razvedkachi, aloqachi, mergan... Harbiy sohaga oid bu ro'yxatni yana xohlagancha davom ettirish

mumkin. Ular orasida shunday kasb egalari borki, bular samo lochinlari deya e'tirof etiladigan harbiy uchuvchilardir. Uchuvchilikning qanchalik nozik kasb ekanligini mutaxassislar juda yaxshi bilishadi. Samo lochinlaridan matematik hamda navigatsion hisob-kitoblarni puxta o'zlashtirishdan tashqari, o'ta xotirjamlik, ruhiy va jismoniy zo'riqlashlarga hamisha tayyor bo'lish talab etiladi. Bularning barchasi, ya'ni uzoq yillik nazariy va amaliy mashg'ulotlarning samarasi sifatida har safar samolyot yoki vertolyot shturvaliga o'tirishdan oldin qayta-qayta namoyon bo'laveradi.

Chirchiq aerodromida o'tkaziladigan harbiy vertolyotlarni boshqarish

mashg'ulotlarini parvoz zavqini haqiqiy ma'noda his etish jarayoni, desak, adashmaymiz. O'zbekiston harbiy aviatsiya instituti kursantlari tajribali yo'riqchi-uchuvchilar nazorati ostida kelgusidagi faoliyatining tamal toshini qo'yib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bir necha yuz parvoz soatiga ega ofitserlar esa turli jangovar vertolyotlarni boshqarish bo'yicha amaliy bilimlarini mustahkamlab borishadi. Safdoshlarining samodagi harakatlarini kuzatib, o'z navbatini kutib turgan kursantlar ham, tajribali ofitserlar ham shturvalga o'tirishdan oldin hayajonni yengish kerakligini yaxshi biladi. Buni yo'riqchi-uchuvchi mayor Gafurjon Kochkarov



tomonidan yerda ko'rsatib berayotgan harakatlari va har bir gapini diqqat bilan tinglayotganlar nigohlarida anglash mumkin. Xullas, ustozlar o'giti qanchalik qimmatli ekanligi aks etadigan jarayon.

Parvozdan oldin ham, muvaffaqiyatli qo'nishdan keyin ham kursantlardan biri safdoshlariga tinmay nimalarnidir tushuntirar, ustozlaridan esa nimalarnidir so'rab olishi diqqatimizni tortdi. O'zini Doston Shavkatov deb tanishtirgan, O'zbekiston harbiy aviatsiya institutining 2-kursini tugatib, navbatdagi mashg'ulotlarda qatnashayotgan bu yigit bekorga safdoshlaridan ajralib turmaganligiga yo'riqchi-uchuvchilar oydinlik kiritishdi.

– Doston Polkovnik Rashid Qo'ldoshevning ikkinchi o'g'li. Akasi Rustam ham bugungi mashg'ulotlarda qatnashyapti. U 3-kursni tamomladi. Polkovnik Rashid Qo'ldoshev tajribali vertolyot uchuvchisi. Hozirgi kunda O'zbekiston harbiy aviatsiya institutida bo'lg'usi uchuvchi ofitserlarga saboq berib keladi...

Uchuvchilar avlodining davomchisi bo'lmish Doston Shavkatov birinchi ustoz – otasidan ko'p narsalarni

aviatsiyamizda vazifasini o'tab berishi shubhasiz. Havoga navbatma-navbat va juft-juft bo'lib jangovar Mi-24, ko'p yo'nalishli N215, o'quv-mashq N125 vertolyotlari ko'tariladi. Uchuvchi ofitser va kursantlar sohada 30 yillik tajribaga ega podpolkovnik Olim Urazov singari yo'riqchi-uchuvchidan qimmatli saboqlarni olgan holda navbatdagi muvaffaqiyatli qo'nishni amalga oshiradi.

Mudofaa vazirligi Harbiy havo kuchlari va Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari harbiy xizmatchilarining deyarli kundalik mashg'ulotiga aylanib qolgan har bir harakati haqiqiy Vatan himoyachisining shijoatiga xos. Ana shu shijoat hamisha vertolyot



o'rganganligi, ularni o'rtoqlari bilan muhokama qilishi o'ziga xos tajriba. Bunday tajriba kelgusida milliy armiyamizda, uning qanoti hisoblangan harbiy

parraklarining aylanishidan hosil bo'ladigan havo to'lqinidek shiddatli bo'lishini tilab qolamiz.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"



OSMONNING KALITI

ishonchli qo'llarda



Mudofaa vazirligi Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari mutaxassislari kuni bayrami keng nishonlandi.

Ishtirokchilar dastlab poytaxtimizning Yashnobod tumanida joylashgan 22-harbiy shaharchadagi monument poyiga gulchambarlar qo'yib, parvozdan qaytmagan hamkasblarini xotirladilar.

Shundan so'ng tantanali tadbir o'tkazildi. Unda Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondoni general-mayor Axmad Burxonov so'zga chiqib, barcha shaxsiy tarkibni, faxriylar va boshqa mehmonlarni qutlug' sana bilan muborakbod etdi.

Bir guruh harbiy xizmatchilar va Qurolli Kuchlar xizmatchilariga ko'krak nishonlari hamda navbatdagi harbiy unvonlar topshirildi. Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlarida Vatanimiz tinchligi yo'lida xizmat qilayotgan ofitser va serjantlar, askarlar hamda Qurolli Kuchlar

xizmatchilarining mashaqqatli va sharafli mehnati har qancha tahsinga sazovor.

Yurtboshimiz tomonidan Qurolli Kuchlarimizning jangovar qudratini yanada oshirish va mustahkamlash borasida keng ko'lamliligi va tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari zamonaviy avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, havo hujumidan mudofaa komplekslari, samolyot va vertolyotlar, yangi avlod uchuvchisiz uchish apparatlari bilan butlanmoqda.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kunda harbiy aerodromlarning qiyofasi tubdan o'zgardi. Deyarli barcha havo hujumidan mudofaa bo'linmalarida kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

So'nggi yillarda milliy armiyamiz, jumladan harbiy aviatsiyamiz nafaqat mamlakatimizning musaffo osmonini ko'z qorachig'idek asrashda, shuningdek yurtimizda sodir bo'lgan har qanday tabiiy ofatlarni bartaraf etishda xalqimiz bilan bir tan-u bir jon ekanini amalda isbotlamoqda.

O'zbekiston Havo floti hamda Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari mutaxassislari kuni munosabati bilan soha xodimlarini samimiy tabriklab, ularga hamisha xavfsiz parvozlar tilaymiz!

A. NORQULOV



2024-yil Mudofaa vazirligiga qarashli oliy harbiy ta'lim muassasalarini tamomlab, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlariga yo'l olgan yosh ofitserlar bilan Nukus garnizonida o'quv-uslubiy yig'in o'tkazildi.



YOSH OFITSERLARNING KASBIY KO'NIKMASI OSHIRILDI



Umumharbiy nizomlar talablari doirasida ushlab turish, bo'linmada sog'lom, raqobatbardosh muhitni mustahkamlash hamda lavozim bilan yuklatilgan xizmat majburiyatlarini bajarishga tez kirishib ketishi uchun yosh ofitserlar ishtirokida o'quv-uslubiy yig'in tashkil etilib, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari olib borildi.

Nukus garnizoni harbiy qism va muassasari negizida o'tkazilgan mashg'ulotlarning har bir daqiqasi qat'iy reja asosida, yetuk va tajribali ofitserlar hamda malakali bosh serjantlar ko'magida o'tkazildi.

Albatta, har sohada yuksak professionallikka tajriba orqali yillar davomida erishiladi. Oliy harbiy ta'lim muassasalarini tamomlagan yosh ofitserlarga qo'shinlarda shaxsiy tarkib bilan ishlashdan oldin puxta bilim, yaxshi tajriba, mahorat va liderlik xususiyatlari talab etiladi. Shu bois yig'in davomida yosh ofitserlarning tezroq tajribalarni egallashi, shaxsiy tarkib bilan ishlashni o'rganishi, ofitser-serjantlar bilan muomala qilishda hurmat-izzat tamoyillari hamda Umumharbiy nizomlar qoidalariga amal qilishi, bo'linmalarda intizomni saqlay olishi, bo'ysunuvchilar bilan

jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini sifatli tashkil etishi bo'yicha mahorat darslari o'tkazilib, har bir leytenant bilan individual tarzda ishlashga alohida e'tibor qaratildi. Kunning ikkinchi yarmida esa har bir yig'in ishtirokchisi uchun mustaqil tayyorgarlik mashg'ulotlari tashkil etilib, harbiy qismdagi kutubxonalar ular uchun xizmat qildi.

Yosh ofitserlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun rejadan madaniy hordiq chiqarish tadbirlari, muzeylarga sayohat, sport va intellektual o'yinlar o'rin oldi.

Albatta, har bir ofitser hayoti va xizmat faoliyati uchun zarur qobiliyatlarini rivojlantirib, ularni boyitib borgani sayin davrning yangi chaqiriqlarini, xizmatdagi mashaqqatlarni yengib o'tishi yengil bo'ladi. Tajriba va bilim esa ofitserning muhim va yo'qotilmaydigan quroli bo'lib, ular ortgani sayin bu qurol takomillashaveradi. Faqat xizmatga kirishayotgan yangi ofitser kadrlarga biroz amaliy ko'mak berish va tajribalarini mustahkamlash kifoya.

**Podpolkovnik
Sarvar AHMEDOV**
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug

Malakali harbiy kadrlar zaxirasini yaratish, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash hamda qo'shinlarda o'z mutaxassisligi bo'yicha munosib o'rnini topa olishini ta'minlash davlatimizning mudofaa sohasidagi siyosatining muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi.

Egniga yaqindagina "leytenant" harbiy unvonini taqib, beg'ubor kursantlik davri bilan xayrlashgan yosh ofitserlar endilikda jangovar bo'linmalarda komandirlik lavozimlarini qabul qilib, nafaqat o'zining, balki butun shaxsiy tarkibning doimiy jangovar shayligi hamda harbiy xizmatchilarda jangovar ruhni yuksaltirish kabi mas'uliyatli vazifaga kirishadi.

Jangovar bo'linmalarda ofitserlik sha'ni va qadr-qimmatini saqlash, komandir va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarni qonunlar va





Erkin saylov va o'z xohish-irodasini erkin bildirish prinsiplari, birinchi navbatda, har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi. Saylovlar – bu mamlakatimizda amalda bo'lgan huquqiy normalarning nechog'li demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo'lib, o'ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir.

Saylov tushunchasi mazmun-mohiyati va huquqiy asoslari

(1-maqola)

Umume'tirof etilgan talablarga muvofiq, saylov huquqi butun dunyoda e'tirof etilgan eng muhim siyosiy huquqlardan biri bo'lib, u mamlakat fuqarolariga davlat hokimiyati organlariga o'z vakillarini yuborish imkoniyatini beradi. Fuqarolarning o'z saylov huquqlarini hech qanday to'sqinlik bilan amalga oshirishlari ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokining eng muhim kafolatlaridan biri sanaladi.

Saylov huquqi va saylov jarayoni hamda davlat va jamiyat faoliyatining siyosiy sohasi o'rtasida uzviy aloqadorlik mavjud. Bunda saylov huquqi saylangan vakillarga hokimiyat vakolatlarini qo'lga kiritish hamda uni navbatdagi saylovlarda yangitdan saylangan vakillarga o'tkazish bilan bog'liq davlat-ijtimoiy faoliyatining muayyan jihatlarini tartibga solishini anglatadi, saylov jarayoni esa subyektiv siyosiy huquqlarni amalga oshirishning shakli sifatida saylovchilarning davlat hokimiyatini tashkil etish va uni amalga oshirishda ishtirok etishlari uchun qonunlarda va amalda yaratilgan sharoitlarni aks ettiradi.

Insoniyat tajribasi demokratiyaning ikki shaklini ishlab chiqqan: **bevosita (to'g'ridan to'g'ri) demokratiya hamda vakillik demokratiyasi** – organlar, avvalambor, vakillik va boshqa saylab qo'yiladigan

organlar orqali amalga oshiriladigan demokratiya, ya'ni saylov demokratiyasi. Demokratiyaning mazkur shakllarini bir-biriga qarshi qo'yimaslik lozim, chunki bu ikkala shakl o'ziga xos ahamiyatga ega va o'zaro uzviy bog'liqdir.

To'g'ridan to'g'ri demokratiya insonning davlat ishlarini hal qilishda yashirin ovoz berish orqali yoki boshqa shaklda bevosita ishtirok etishi. Vakillik demokratiyasi deb insonning davlat ishlarini hal etishda o'zi saylagan vakillari, ya'ni deputatlar orqali ishtirok etishiga aytiladi.

Bevosita demokratiya (asosiy qarorlar barcha fuqarolar tomonidan referendum, yig'in kabilarda qabul qilinadi) va bilvosita demokratiya (qarorlar saylab qo'yiladigan muassasalar – parlamentlar va boshqalar tomonidan qabul qilinadi) farqlanadi.

Demokratiyani fuqarolarning saylovlarda to'g'ridan to'g'ri o'zlari xohlagan nomzodlariga yoki partiyalarga ovoz berishlarida ko'rishimiz mumkin.

Demokratiya o'zining sof ko'rinishida fuqarolarga o'zlari va mamlakatlari taqdiriga doir davlat qarorlari chiqarishlari jarayonida to'g'ridan to'g'ri, masalan, referendumlar orqali ishtirok etish imkonini beradi. Bu bevosita

demokratiya demakdir. Bunday imkoniyat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 9-moddasi (davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalarini referendum orqali hal etilishi belgilangan)da ham ko'zda tutilgan.

Fuqarolar o'z nomlaridan faoliyat yurituvchi va qaror qabul qiluvchi vakillarini saylaydilar. Buni vakillik demokratiyasi yoki boshqacha aytganda, bilvosita demokratiya deb ataydilar. Vakillik demokratiyasining asosida doimiy o'tkaziladigan, haqqoniy, halol va muqobil saylovlar yotadi. Bunday saylovlarning izchil o'tkazilishi hokimiyatni xalqqa bog'lab turadi.

Konstitutsiyamizning 19-moddasi (ya'ni barcha fuqarolarning teng huquqligi) jamiyatimizda turli sinf, toifa, millat va elatlarning manfaatlarini ifodalovchi partiyalar, uyushmalar va ularning mafkuralari bo'lishi mumkinligini qonuniy mustahkamlaydi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda rasman ro'yxatdan o'tkazilgan beshta partiya mavjud. Bular: Xalq demokratik partiyasi, "Adolat" sotsial demokratik partiyasi, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O'zbekiston Ekologik partiyalaridir. Ushbu siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-dekabrda qonuni bilan belgilanadi. Unga ko'ra, siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar muvofiq ravishda tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir.

Ilmiy adabiyotlarda saylov deganda davlat hokimiyatining muayyan turdagi organini yoki mansabdor shaxsini bevosita xalqning xohish-irodasiga asoslangan holda, ular tomonidan shakllantirish bilan bog'liq jarayonga oid tartib-taomillar tushuniladi. Ayni paytda, saylov bilan uzviy bog'liq bo'lgan **saylov huquqi** atamasining mazmuni ham o'z navbatida, **birinchidan**, saylovlarni tashkil etish va o'tkazishni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi bo'lsa, **ikkinchidan**, fuqarolarning saylovda qatnashishga oid siyosiy xuquqlarini amalga oshirish mexanizmi, ya'ni nomzodlar ko'rsatish, nomzodlar va ularning dasturlari bilan tanishish va muhokama qilish, saylanish, saylov komissiyalari tarkibida ishtirok etish va ovoz berish kabi huquqlarini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXII bobi "Saylov tizimi" deb nomlanib, uning 128-moddasida quyidagilar belgilangan:

"O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o'z xohish irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengisiga, viloyatlar,

tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – **oktabr oyi uchunchi o'n kunligining birinchi yakshanbasida** o'tkaziladi, bundan ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan muddatdan ilgari saylov o'tkazish hollari mustasno. Saylovlar umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan fuqarolari saylash huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlashga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengisi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo'shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so'ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadilar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq davlat hokimiyati vakillik organining deputati bo'lishi mumkin emas.

Saylov o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi".

Konstitutsiyaga "Saylov tizimi" deb nomlanuvchi XXII bobni kiritilishi birinchidan, saylov tizimi prinsiplarining konstitutsiyaviy mustahkamlanishi saylov huquqi bo'yicha umumiy tan olingan xalqaro standartlarga rioya qilinishini kafolatlaydi. Ikkinchidan, konstitutsiyaviy normalar saylovlar haqidagi qonunlar uchun asos, poydevor vazifasini o'taydi. Bunday yondashuv insoniylik mezonlari bo'yicha 1990-yilda qabul qilingan YEXHTning Kopengagen hujjati (5.3-band), keyinroq 1994-yilda Parlamentlararo ittifoq qabul qilgan "Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to'g'risidagi Deklaratsiya" (4-band) qoidalariga ham to'la muvofiq keladi.

Shuni e'tirof etish kerakki, O'zbekiston saylov qonunchiligi erkin demokratik saylovlar o'tkazish bo'yicha xalqaro saylov andazalari majmuini tashkil etuvchi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga to'la mos keladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasida ta'kidlanganidek, yurtimizda "Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda" tan olinadi. Hozirgi paytda dunyoda insonning saylov huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, erkin demokratik adolatli saylovlarni tashkil etish va o'tkazish sohasiga doir 20 dan ziyod xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar mavjud.

(Davomi kelgusi sonda)

Mayor Abduqodir OTABOYEV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
katta o'qituvchisi,
s.f.f.d. (PhD), dotsent

Uzoq yillardan buyon desantchilar harbiy qismida xizmat burchini o'tab kelayotgan kichik serjant Ulug'bek Pirmatov va katta serjant Azamat To'qsonovni tanigan-bilganlar kasbiga sadoqatli safdosh, qadrdon do'st sifatida e'tirof etishadi. Yaqinda bu ikki do'stning hayotida bir umrga esdan chiqmaydigan voqea sodir bo'ldi.

Sinovlarda toblangan do'stlik



ixtiyoriga topshirildi. Hamid Madyarovga shifoxonada ham tegishli tibbiy muolajalar ko'rsatilib, o'sha kunning o'zida uyiga javob berildi. Oilasi bag'riga qaytgan Oqqovoq mahallasi fuqarosi o'zini hayotga qaytargan kichik serjant Ulug'bek Pirmatov va katta serjant Azamat To'qsonovga yozma ravishda tashakkur bildirib, Chirchiq shahri favqulodda vaziyatlar bo'limiga murojaat qildi...

Xizmat taqozosi bilan Chirchiq garnizonida joylashgan desantchilar

qilish kerakligini ta'kidladi. Fuqarolar xavfsizligini ta'minlash Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishning bir bo'lagi ekanini aytganimizda, kamtarlik bilan: "Bizning o'rnimizda bo'lganingizda siz ham xuddi shunday yo'l tutgan bo'lardingiz", deya javob qaytarishdi. Ulug'bek Pirmatov Jizzax viloyatining Yangiobod, Azamat To'qsonov esa Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida tug'ilib o'sgan. Ular Mudofaa vazirligi tizimidagi xizmat faoliyati davomida qadrdon

Dam olish kunlarining birida katta serjant Azamat To'qsonov oilasidagi mudhish fojidan og'ir stressga tushib qolgan do'stini qo'yarda-qo'ymay tabiat qo'yniga dam olishga olib chiqadi. Do'stlar maslahatlashib, Chirchiq daryosining bahavo sohilidan tanlangan joyda oilaviy o'tirishga kelishib olishdi. Chunki yozning jaziramasidan saqlanish uchun suv bo'yida hordiq chiqarish eng to'g'ri qaror edi. Tabiat qo'ynida dam olish haqidagi qarordan ikki do'stning farzandlari rosa quvonishdi. Ammo o'sha kuni ro'y bergan voqeadan keyin kichik serjant Ulug'bek Pirmatov va katta serjant Azamat To'qsonovning farzandlari otalari amalga oshirgan ishdan bir umrga faxrlanib yuradigan bo'ldi.

"Qaranglar, suvda kimdir oqib kelyapti!" 11 yoshli Amirbekning tahlika aralash aytgan gapidan hammaning nigohi yuz metrdan ortiq kenglikda oqayotgan suvga qaratildi. Daryoning ikki sohilidagi oqim tezligi ancha past. Cho'milish uchun qulay va xavfsiz. Lekin o'rtada oqim juda shiddatli. To'lqinlanib oqayotgan suvda kimdir bir ko'rinib, bir ko'rinmay, harakatsiz oqib kelardi. Kichik serjant Ulug'bek Pirmatov o'ylab o'tirmasdan, kiyimlarini yechgan daryoga o'zini otdi. Devqomat gavdasiga mos



tarzda chaqqon harakat qilgancho'kayotgan odamni qutqarish va uni sohilga olib chiqishi uchun 200 metrcha suzib borishga to'g'ri keldi.

Sohilda katta serjant Azamat To'qsonov do'sti qutqargan insonga birinchi tibbiy yordam ko'rsatdi. Ehtiyotsizligi tufayli yorug' dunyo bilan xayrlashishiga bir bahya qolgan fuqaro sun'iy nafas oldirish, ko'krak qismida amalga oshirilgan massaj va qo'l-oyoqlarning to'xtovsiz harakatga keltirilishi natijasida ko'zini ochdi. Shundan so'ng Ulug'bek tez tibbiy yordamga qo'ng'iroq qilib, Chirchiq shahrining Oqqovoq mahallasida istiqomat qiluvchi, 1972-yilda tug'ilgan Hamid Madyarov shifokorlar

harbiy qismiga ko'p marta borganmiz. Mashg'ulotlar, madaniy-ma'rifiy va turli vatanparvarlik tadbirlari. Harbiy qismga bu safargi tashrifimiz odatdagidan farqli tarzda, haqiqiy qahramonlar faoliyatini qisqagina yoritishdan iborat bo'ldi. Qahramonlarimiz odatdagi kundalik xizmat burchini bajarguncha parashyutdan sakrash mashqlarining trenajyorlardagi mashg'ulotida ishtirok etayotgandi. Ulug'bek ham, Azamat ham safdoshlari bilan o'zlari uchun yod bo'lib ketgan, ammo qayta-qayta bajarilishi talab etiladigan mashqlarni bajarardi.

Hamid Madyarovning qutqarilishi haqidagi tafsilotlarga qisqagina to'xtalib o'tib, suhbatni harbiy xizmat mavzusiga burib yuborgan ikki do'st eng muhimi, Vatanga sadoqat bilan xizmat

do'st tutinishgan. Ikki do'stning bu fidoyiliklari va jasorati Mudofaa vazirligi rahbariyati tomonidan e'tirof etilib, munosib rag'batlantirildi.

P.S. Kichik serjant Ulug'bek Pirmatov 2018-yilda ham xuddi shunga o'xshash ishni amalga oshirgan. O'shanda Ulug'bek desantchilar harbiy qismi yaqinida ta'mirlash ishlarini olib borish jarayonida 4 metrlik kanalizatsiya qudug'iga tushib ketgan fuqaroni qutqarib qolgan. Mana shu voqealar tufayli Ulug'bek Pirmatov harbiy xizmatdagi faoliyatidan keyin qutqarish xizmati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda insonlarga ko'mak berishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan.

A. RO'ZIBOYEV



Harbiy-vatanparvarlik nutqi

Harbiy-vatanparvarlik nutqi ijtimoiy-siyosiy notiqlikning muayyan bir ko'rinishi bo'lib, juda qadimiy hisoblanadi. Bunday nutq va murojaatlar jangovar ruhi, siyosiy keskinligi, vatanparvarlik mohiyati, jasorat va sadoqat ruhida ekanligi bilan o'ziga xosdir, mustaqildir.

HARBIY-VATANPARVARLIK nutqlarini ilmiy jihatdan tadqiq va tahlil qilishda gender tushunchasi e'tiborni tortishi tabiiy. Mazkur leksikaning muhim tomoni shundaki, odatda ayollar nutqida ko'proq muloyimlik, iltijo, shikoyat kabi mazmun kuzatilsa, erkaklar nutqida qat'iyat, jasorat, shijoat ifodalanadi. Ammo harbiy-vatanparvarlik masalasiga kelganda so'zlardagi gender tafovutda o'zgarish kuzatiladi, ya'ni ayollar nutqida ham ayollarga, ham erkaklarga xos sifatlar kuzatiladi. Bu, albatta jangovarlik bilan bog'liq bo'lgani

qadrlagan Darshin ustidan g'olib chiqishga, yovuz jangchilarni yuzlab qirishga omad so'rayman (Kavi Vishtasp nutqidani).

Turonning Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi va boshqa mard bahodirlari, sarkardalari ham harbiy-vatanparvarlik nutqini mukammal egallaganliklari tarixdan ma'lum. Ularning jasurligi, mardonavorligi, odilligi doimo so'zida namoyon bo'lgan.

ISKANDAR MAQIDUNLNING (milod. av. 334-330-y) bosqiniga qarshi chiqqan jasur so'g'd o'g'loni Spitamenning so'zlariga e'tibor bering: **"Men o'z nasl-nasabimni sevaman. Ammo So'g'diyonani sizning va mening otalarimiz Vatanini, bir tilda so'zlashadigan, bir xil qo'shiqlarni kuylaydigan va bir xil kiyim kiyadigan odamlar Vatanini undan ham ko'proq sevaman. Shuning uchun kim So'g'diyonani ozod qilish uchun kurashayotgan bo'lsa, shular tarafidaman."**

XO'JAND HOKIMI sarkarda Temur Malik o'z ona Vatanini jonidan sevgan, iymoni butun, mard xalq farzandi bo'lib, mo'g'ullar Movarounnahrda hujum qilgan dastlabki onlardayoq otashin nutq so'zlab, jangchilarini jangga shaylaydi: **"Hatto ojiz inson ham bor kuchi bilan**

hayotida jangovarlik san'ati bilan bog'liq badiiy so'zning ta'sir qudratini ko'rsatib beruvchi jonli voqealar bisyor. Tarixdan ma'lumki, Boburning nutqiy mahorati lashkarlar orasida boshlangan parokandalikni, tarqoqlikni to'xtatgan. Uning hind sarkardasi Rano Sango bilan bo'ladigan jangi oldidan qo'shinlari orasida ba'zi bir sabablarga ko'ra tarqoqlik boshlanadi. Bu ahvolni ko'rgan Bobur lashkarlari oldida nutq irod qiladi:

"Har kimki hayot majlisiga kiribtur, oqibat ajal paymonasidin ichkusidir va har kishikim, tiriklik manziliga kiribtur, oxir dunyo g'amxonasidin kechkusidir, yomon ot bilan tirilgandin, yaxshi ot bilan o'lgan yaxshiroq. Tangri taolo bu nav' saodatni bizga nasib qilibtur va mundoq davlatni bizga qariyib aylabtur. O'lgan shahid va o'ldirg'on g'oziy, barcha Tangrining kalomi bilan ont ichmak kerakkim, hech kim bu qattoldin yuz yondirur xayol qilmay, to badandin joni ayrilmag'unicha, bu muhoriba va muqotiladin ayrilmag'ay..."

Gulbadanbegimning ma'lumotiga ko'ra, "bunga majlisdagilarning hammasi rozi bo'lib, tomirimizda bir tomchi qonimiz qolguncha kurashamiz, deb qasam ichadilar..."

Boburning bu otashin nutqidani so'ng barcha askarlar bir tan-u bir jon bo'lib, jang qilishgan.

JADIDLARNING yurt ozodligi, erki va mustaqilligi uchun kuyinchaklik bilan yozganlari ham harbiy-vatanparvarlik nutqining yetuk namunasi hisoblanadi.

Turkiston kelajagi uchun Farg'ona vodiysida hayot-mamot janglari boshlangan bir vaqtda "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1918-yil 2-avgust sonida Mahmudxo'ja Behbudiyning mashhur "G'alla, askarlik, yer va tazminoti harbiya"

maqolasi, gazetasining 1918-yil 13-avgust sonida esa Hoji Muinning "Bizga nima kerak?" maqolalari chop qilinadi. Mazkur ikki maqolada nafaqat mualliflarning, balki butun

Turkiston jadid taraqqiyparvarlarining askarlik, milliy qo'shin tuzish bo'yicha qarashlari o'z aksini topgan.

Hoji Muin **"Hozirgi vazifamizg'a qarag'anda bizga eng avval, askar kerakdir. Chunki hozirgi doxiliy urush va inqilob, xorijiy dushmanlarning tajovuzidan ortiq bizga qarshi xatarli bir holg'a aylanmaqdadurki, bu urushdan Vatan va hurriyatni qutqarib olmoq uchun askariy zo'r bir quvvatg'a molik bo'lmog'imiz mutlaqo lozimdir"**, deydi. Hoji Muin askarlik masalasini hal etib, xalqning ozodlikka chiqishini targ'ib qilgan.

"Dunyoda zolim ostinda nomussiz yashamakdan huquq va hurriyat yo'linda nomus bilan o'lmak ming marta yaxshiroqdir. Ey Turkiston xalqi! Oyoqg'a tur! Dushmanlaringni bos! Yurtingni saqla! Ey turkistonli turk o'g'li! Yarog'ingni ol! Yovingni ot! Hurriyatingni saqla!"

O'ZBEK ADABIYOTIDA harbiy-vatanparvarlik nutqlarining ta'sirchan namunalarini uchratish mumkin. Oybekning "Navoiy" romanida Navoiy nutqi:

"Navoiy jiddiy tikilib dedi:

- Jang maydoni yigitlarga husn bag'ishlaydi. Yigit uchun mardlik, qahramonlikdan o'zga ulug'roq, oliyroq bir fazilat bormi? Yurt va davlat uchun o't va suv kechib, zafar bayroqlarimizni, quyosh bayrog'i kabi baland ko'taruvchi oliyjanob bahodirlar kerak. Lekin inson har bir hunarga, har bir mashg'ulotga xolis niyat bilan, samimiyat va ishq bilan kirishmog'i lozim. Ishq bo'lmasa, kishi bir necha ishda faqiyat ko'ra olmas. Agar yuragingizda jangovarlik ishqining mavjlarini sezsangiz, askar bo'lingiz, men faqat sizni tabriklayman"

ABDULLA QODIRIYNING "O'tkan kunlar" romanidagi **Yusufbek hoji nutqi ham ana shunday nutqlarga misol bo'la oladi:**

"- Beklar, - dedi, - manim hamma mulohazam yurt, el manfaati nuqtasidan turib aytiladi. Men hech bir vaqt inkor qilolmaymankim, yolg'iz o'z g'arazi yo'lida ish qilg'uchi palid kishilar qipchoqlar orasida bor bo'lg'anidek, bizda ham yo'q emas... Balki anovillarda o'nlab bo'lsa, bizda yuzlab bor. O'zi bizning ko'zimizga itdek sovuq ko'ringan qipchoq bachcha Normuhammadning el uchun qilib turg'an to'g'ri xizmatini men o'z umrindagi Toshkand beklari orasida birinchi martaba ko'raman. Buni siz, yaxshilar ham inkor qila olmassiz. Bas, ayb qipchoqda emas, balki uning manfaati shaxsiyasi yo'lida ish ko'rguchi boshliqlarida va qipchoqlar o'ylag'andek gunoh qorachoponlarda bo'lmay, balki uning uch-to'rt ma'nisiz beklarida!.."

Burodarlar! O'rus o'z ichimizdan chiqadig'an fitna-fasodni kutib, darbozamiz tegida qo'r to'kib yotibdir. Shunday mahshar kabi bir kunda biz chin yovg'a beradigan kuchimizni o'z qo'limiz bilan o'ldirsak, sen falon deb qirilishsaq holimiz nima bo'ladi. Bu to'g'rida ham fikr qilg'uchimiz bormi? Kunimizning kofir qo'lig'a qolishi to'g'risida ham o'ylaymizmi yoki bunga qarshi hozirlik ko'rib qo'yg'anmizmi?!

SAID AHMADNING "Ufq" romanidagi ushbu jumalarga qarang: **"Aziz farzandimiz, jigargo'shamiz Azizxon! Sening sevikli Vatanimizni yovuz dushmanidan himoya qilish uchun frontda ko'rsatgan qahramonligingni eshitib, boshimiz ko'kka yetdi. Dillarimiz quvonchga to'ldi. Vatan uchun fidokorona jang qilayotgan azamatlar safida ekanligingdan faxrlanamiz. Hamisha mana shunday mard bo'! Biz, hamqishloqlaring dushmani Berlingacha quvib borishingni, uni o'z uyasida yanchib tashlashingni istaymiz. Chekinma! Dushman galalariga sherdek tashlan! Uni yanch! Xonavayron bo'lgan oilalarning, yetim qolgan bolalarning qasosini ol! Onalarning ko'z yoshlari esingda tursin! Dorga osilgan, bo'g'ziga xanjar qadalgan jigarbandlarimiz esingda tursin! Shularning hammasi, hammasi uchun qasos ol, azamat lochinimiz!"**

Bu Ikkinchi jahon urushida mardonavor qahramonlik ko'rsatgan o'zbek jangchisiga yurtdoshlarining Vatanga chin dildan xizmat qilishga undagan va dushmanga cheksiz nafrat bilan ayovsiz kurashishga chorlagan maktubi bo'lib, bu nutqni harbiy-vatanparvarlik nutqining yorqin namunasi deyish mumkin.

Firuz MURODOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

Dilimizga g'ayrat, bilagimizga quvvat ate qil,



bois jang paytida ayollardagi nazokat va munglilik o'rnini erkaklarga xos mardonavorlik egallaydi.

Masalan, "To'maris" afsonasidagi To'maris nutqidagi o'ziga ishonch va qat'iyatlik aks etgan **"dilimizga g'ayrat, bilagimizga quvvat ate qil, yuragimizga o'ch olovini sol! Qilichimizni o'tkir qil!"** jumalari erkaklarga xos jasorat, jangovarlik ifodalansa, **"...odamlarga o't bergan ham sen, daryolarni toshirgan, ekinzor va o'tloqlarga suv bergan ham sen!.. Qo'y va kiyiklarni ko'paytirgan, don-dunga baraka bergan ham sen!"** kabi jumalarda ayollarga, onalarga xos sifatlar, ya'ni farzandini, oilasini, ro'zg'or g'amini o'ylaydigan mushtipar ona siymosi gavdalanadi.

ZARDUSHTIYLIK dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto"da ham harbiy yurishlar bilan birga qabilani boshqarish usullari to'g'risida ma'lumotlar bor. Masalan, Kavi Vishtasp bir necha tarqoq qabilalarni birlashtirib, ularga boshchilik qilgan. **"... Baxt-saodatli Ashi, g'alabali jangda, yovuz kuchlarning, yetti yuz egasi serjahl Ashtarvant, soxta Arjatas, devlarni**

tashlansa, vahshatli yo'lbarsni ham yengadi. Nahotki biz chekinishni o'ylasak? Dushman saraton issig'idan qochadi, demak, nodonlik! Jangga kirsak, o'qimiz nishonga tegishini, qilichimiz osmonda yarqirashini ko'rsatinglar!"

Adib Mirkarim Osim asarida shunday satrlar bor: **"Temur Malik chekinishdan bo'lak chora qolmaganini angladi. O'z safdoshlarini atrofiga to'plab, ma'yus ohangda gap boshladi:**

- Birodarlar! Ahli dunyo Rustami doston zamonidan beri Sizdek pahlavonlarni ko'rmagan edi. Shu damgacha quloq eshitmagan, ko'z ko'rmagan bahodirligingiz soyasida g'anim bir necha ming askaridan judo bo'ldi. Endi chekinmoq vaqti yetdi. Men boshda Xorazmdan madad kelar, deb o'ylagan edim, yanglishibman. Xorazmshoh butun lashkarini tarqatib yubordi. U do'stlar so'ziga emas, pinjiga kirib olgan dushmanlar so'ziga kirdi. Ammo biz qurol-yaroqni tashlamaymiz. Safar kemasiga o'tirib, dushman bilan jang qila-qila, najot sohiliga erishurmiz..."

TA'SIRCHAN NUTQ bilan mashhur bo'lgan shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning



Navoiy asarlari hamda xalq dostonlarida vatanparvarlik va milliy qadriyat

Askar hech qachon urush tanlamaydi. U o'z burchini, majburiyatini ta'minlash maqsadida Vatan himoyasiga otlar ekan, o'ziga qo'yilgan jangovar vazifani sharaf bilan bajarishga harakat qiladi. Vatanni himoya qilish naqadar ulug' savob, har bir musulmonning zimmasidagi farz hisoblansa, unga xiyonat qilish, qurol bilan bostirib kelish shu qadar katta gunoh, eng oliy jazoga loyiq jinoyat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining jangovar ruhini oshirish, turli murakkab va og'ir vaziyatlarga nisbatan ruhiy bardoshlilikini, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda xalq dostonlari va mumtoz asarlarning qimmatini beqiyos.

JANGCHI BO'LIB TUG'ILISH, mardona kurashish, qahramonlarcha o'lish aksar ajdodlarimizning bebaho hayot tarziga aylangan. Fikrimizni "Yusuf bilan Ahmad" va uning uzviy davomi sanalgan "Alibek bilan Bolibek" jangnoma dostonlari, Alisher Navoiyning "Risolayi tiyr andoxtan" risolasi tahlillarida ko'rib chiqamiz.

Epik asarlarning muhimlik darajasi, ayniqsa Ikkinchi jahon urushi yillarida tobora kuchayib bordi. Chunki **jangchilarni vatanparvarlik va qahramonlik ruhida tarbiyalash qo'shin psixologiyasining muhim bo'lagi hisoblanib, bunda folklarning ahamiyati beqiyos edi.** Chunki qahramonlik va jangnoma dostonlarimizda jangchilarda vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otish, ularning ruhiy-psixologik ta'minotini mustahkamlash kabi zaruriy vazifalar baland notalarda kuylanadi. Shuningdek, ulardagi Vatan tinchligi yo'lida birlashish, kurashish, jasorat ko'rsatish strukturasi yorqin ranglarda ifodalangan bo'lib, bu kabi komponentlar har bir jangchining shijoati va jangovarligini oshirishga xizmat qiladi.

Biz dostonlarning syujetiga to'xtalib qolmasdan, ulardagi jasorat va diniy e'tiqod masalalariga e'tibor qaratamiz.

"Yusuf bilan Ahmad" dostonida islom dinini qabul qilib, osuda yashayotgan Masal shohi Go'zalshohga qo'shni mamlakat G'ulg'ula shahrining shohi Shohpo'latshohning maktub yo'llashi navbatdagi ziddiyatli voqealar formulasini yaratadi.

U elchi orqali Masal podshosiga shunday mazmundagi noma bitadi:

– Yurtga Yusufbek Ahmad kelibdi, undan qo'rqib, yuraging yorilib, joning chiqib, diningdan ayrilib, shularning gapini ma'qul, deb diniga kiribsan. Ana endi shu xatni ko'rgandan so'ng tavba qilib, uzr aytib, yangi dindan qaytib, avvalgi diningni qabul qilasan. Agar qaytmasang, ustingga lashkar tortib boraman...

Go'zalshoh maktubni el-ulusga o'qib eshittiradi.

Masal jangchilarining chin e'tiqodi, vatanparvarligi, botirligi quyidagi o'rinlarda yaqqolroq ko'rinadi:

– Ana, kelsa qilichimizning baldog'i, miltig'imizning qo'ndog'i qolguncha urushamiz. Ajalimiz yetsa, kunimiz bitsa, agar o'lsak, shu dinimizda o'lamiz.

Matndan anglashiladiki, ularning har so'zida botirlik, e'tiqod kabi ulug'vor xislatlar bo'y ko'rsatadi. Ushbu jangnoma dostonlarining janri dostonlarga xos bo'lgan sa'j orqali ifodalanganini e'tiborga olsak, qahramonlarning she'riy uslubdagi monologlari asar ta'sirchanligini oshirib boradi.

BIR O'RINDA JANGCHI: "Yurtni sevmoq odatidir erlarning..." desa, yana bir jangchi g'animni: "Kelsang, qilich bilan aylay ziyofat..." deya ogohlantiradi. Ko'rinib turibdiki, yurt taqdiriga xavf soluvchi har qanday holat jangchilarni ilonday qo'zg'atib, sherday na'ra torttirgan.

Dushman mamlakat ustiga bostirib kelayotgani xabarini eshitgan yurt fuqarolarining vatanparvarligiga e'tibor bering:

– ...Yusufbekning yigitlarini andak achchig'i keldi: – Bizga javob bering,

urushamiz, boshiga boshimiz, tishiga tishimiz, Isfaxonning ichida chopishib o'lisharmiz.

Yoki Dostonda Ashurbek sardor

yigitlariga ko'ngillik berib: "Shul dushmanga qilich urgan qirq yil toati beriyodin afzal", degan so'zni aytadi. Bu da'vatda chin ma'noda ikki dunyo saodati ko'rinadiki, bu esa jangchilarni so'nggi qoni qolguncha kurashishga chorlay olgan.

Darvoqe, bu yo'sinda ulg'ayish uchun jangchilar yillar davomida ta'lim oladi, jismoniy va ma'naviy kamolotga erishadi, yurtni hech bir tamasiz, yurakdan sevadigan bo'ladi.

Ana shu vaziyatda jangchilarga xos bo'lgan vatanparvarlik tuyg'ulari yuzaga chiqadiki, hatto "Aslo vahmi-tars ko'ngilga keltirmang, maydonda dushman bilan savashib, talashib o'lsak, bizlarga qanday g'animat. Oxiri odam bor, o'lim bor. Bir kun bo'lmoq, bir kun o'lmoq. Iymoni bilan o'lgan o'lmaydi. Iymonli qul o'lmaydi degan. Ey yigitlar, aslo g'am yemanglar, o'laman deb voyim qilmang", - deya bir-birlariga dalda berishadi.

Alisher Navoiyning kamondan o'q otish fazilatiga bag'ishlangan "Risolayi tiyr andoxtan" nomli hajman kichik, bir nechta hadis va rivoyatlardan iborat risolasida muallif kamondan o'q otish savobini diniy dalillar, hikoyatlar asosida tahlil qiladi.

Hazrat Odam Ato alayhissalom shayton hiylasi bilan jannatdan yerga tushirilgach, Allohning amri bilan dehqonchilik qiladi - bug'doy ekadi. Ammo qarg'alar ekilgan bug'doyini kavlab, yeb qo'ya boshlagach, Xudoga munojot qiladi. Shunda Yaratgan kamon va o'q yuboradi. Yoydan o'q otishni farishta Jabroil (alayhissalom) Odam alayhissalomga o'rgatadi. Odam Atoning qarg'alarga otgan birinchi o'qi tegmaydi, farishta Jabroil alayhissalom tabassum qiladi. **Ikkinchi bor otilgan o'q nishonga tegadi, shunda Jabroil alayhissalom o'z tabassumini quyidagicha izohlaydi: "Agar ilk o'qing nishonga tekkanida qiyomatgacha hech narsa bolalaring qo'lidan qutulmas edi".**

Odam Ato avlodlari yelkasidan necha asrlar o'q-yoy tushmay keldi. Garchi Farishta ibtidoda Odam atoga qarg'alarni mahv etish uchun o'q otishni o'rgatsa-da, buning ramziy ma'nosi keyinchalik ayonlashadi. Qarg'a - qora tUSDagi raqib, u turfa ko'rinish va shaklda ham bo'lishi mumkin. Demak, qurol himoyalani, himoya qilish uchun in'om etilgan. Ilk o'qning nishonga tegmagani esa Inson dunyosidagi nomukammallik, bandaga xos xato va kamchiliklardan nishona.

Keyinchalik o'q-yoy insonning juft qanotiga aylandi. Ro'zg'or uchun ov qilish, tashqi dushmanidan himoyalani va boshqa yumushlarda uning o'rni beqiyosligicha qoldi.

Hazrat Navoiy ushbu rivoyatni keltirar ekan, o'q otishni Xudoning lutfi, Odam Safiy alayhissalomning mo'jizasi, deb xulosa qiladi. Aslida o'q otishning qanday savobi bor? Bu shunchaki dilxushlik emaski, ulkan ajrlar va'da qilinsa. **Jangchi yurt himoyasidir. Yurt himoyasi esa oliy amal sanalur. Navoiy bunga shunday hikoyat keltiradi:**

- Rasululloh sollallohu alayhi vasallam kamonchilikning fazilatini ko'p aytdilar. Sahobalar kamondan o'q otishning savobini qancha miqdorda deb so'radilar. Shunda U Zot alayhissalom: "Agar kamonchilikning savobini aytsam, xalq tirikchilikni tashlab, kamondan o'q otishga berilib ketadi. Bir soat o'q otishning savobi ellik yillik toat savobi bilan tengdur. Agar kim o'q otsa, Alloh unga jannatiylar savobini beradi, nishonga tegizsa, jannat eshigini ochib, bir hurni unga ataydi".

Muallif bundagi savobning qanchalik ulkanligini boshqa bir voqea bilan dalillaydi:

- Shayxlardan Shafiqi Balxiy jon berish chog'i o'q-yoy olib kelib, o'q otadi. Do'stlari buni ko'rib "Shayx shifo topibdi", deb xursand bo'ldilar. Shunda shayx o'z holatini: "Umrin oxirlabdi, shunda bir yaxshi amal qilgim keldi. Biror amalni yoydan o'q uzishdan ko'ra yaxshiroq deb topmadim. Chunki o'q otishda savob ko'p", deya izohlaydi.

Risolada keltirilgan qat'iy jumladan kishi sergak tortadi:

- "Kimki, kamonchilikni o'rganib, so'ng tark etsa, sunnatimdan yuz o'g'irgan hisoblanadi. U mendan emas".

Risoladagi barcha hikoyatlarda o'q otish savobi va bu yo'ldagi urinishlarga urg'u beriladi. Demak, o'q otishni o'rganish ishtiyoqida bo'lgan kishilarga bu qadar saxovat ko'rsatilsa, tom ma'noda Vatan himoyasi uchun xizmat qilayotgan o'g'lonlarga qanchalar sano aytilishini tasavvur qilavering.

- Bir kuni Payg'ambarimiz alayhissalom borar edilar. Sahoba Sa'd Vaqqosning o'z farzandlariga kamondan o'q otishni o'rgatayotgani ustidan chiqdilar. Rasululloh tomosha qilib turdilar. Shu payt bir yigit kelib, yoydan o'q uzdi. Rasuli Akram sollallohu alayhi vasallam xushnud bo'ldilar. Sahobalar buning sababini so'rganlarida: "U yigit kelganida gunohlari ko'p edi, o'q otdi - gunohlari to'kildi, shuning uchun shodlandim", - deb izoh berdilar.

Navoiy zakiy inson sifatida bu amalning sharafini yanada ko'klarga ko'tarar ekan, o'quvchi qalbiga yorqinroq tasavvur berishi uchun shunday deydi:

- Agar bir joyga masjid quriladigan bo'lsa, u yer menda masjid quradilar deb 40 yil oldin shodlanadi. Agar bir yerda o'q otiladigan bo'lsa, u yer menda o'q otiladi deb 80 yil ilgari xursand bo'ladi.

Shoirning betimsol badiiyati shundaki, hadis va rivoyatlarning ichki haroratini sezib, ularni tartibli bir ipga tiza oladi. **Risoladagi voqealar ma'no va mazmunan bir-biridan ulgi olib boradi:**

- Ali karramallohu vajhahu goho yalang bosh va yalang oyoq o'q keltirar edilar. Bir kuni Sa'd Vaqqos o'q otar edilar. Jabroil alayhissalom keldilar. Rasululloh alayhissalom men uchun o'q ot dedilar. Shunda Jabroil alayhissalom men uchun ham Sa'd o'q otsin dedi. Sa'd Vaqqos o'q otdilar. Shunda Rasululloh alayhissalom Xudoyi taolo nomi uchun o'q otgil dedilar. Sa'd o'q otdilar. Sahobalar nishonga borib, ikki o'qni topib, uchinchisini topolmadilar. Jabroil alayhissalom aytdilarki: "Yo Muhammad, u o'qni topmasinlar. Bu o'q jannatda Sa'd Vaqqos uchun yer olib turibdi..."

Risola ushbu hikoyatlar bilan yakun topadi. Aslida Navoiy o'q otishning mohiyatini el-ulusga soddagina bayon qilsa ham bo'lar edi, ammo u rivoyat va hadislar yo'lidan boradi. Harb ishini-da diniy dalillar, hikoyatlar bilan go'zallashtirishga, ko'rk berishga urinadi va buning uddasidan chiqadi.

Demak, yuqorida tahlil etilgan ikki doston va bir risola harbiy-vatanparvarlik tamoyillarini harbiy xizmatchilar ongiga singdirishda quyidagi jihatlar alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

BIRINCHIDAN, tahlil qilingan manbalar harbiy xizmatchida Vatan himoyasi uchun zarur bo'lgan axloqiy fazilatlarini shakllantirish, ularning yuksak ma'naviy jasorati va e'tiqodini mustahkamlash kabi muhim vazifalarni amalga oshiradi.

IKKINCHIDAN, yoshlar ongida harbiy xizmatning ijtimoiy ahamiyatini mustahkamlaydi, Qurolli Kuchlarimizga muhabbat, ma'naviy-ruhiy immunitetni oshirishga xizmat qiladi.

UCHINCHIDAN, yuqoridagi asarlar Vatan ozodligi va farovonligini yakdil saqlash, bu yo'lda har qanday dushman bilan yakkama-yakka kurashishga shaylik normalariga asoslanganini inobatga olsak, ushbu tadqiqot harbiy xizmatchilarning ekstremal sharoitlarda ham ruhiy barqarorligini mustahkamlashga ko'maklashadi.

Kapitan Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar"





Erkin VOHIDOV

O'zbekiston Qahramoni,
xalq shoiri

VATAN QADRI

Chashma qoshida tiniq suv
Qadrini bilmas kishi,
Sayr etib, gulshanda gulni
Ko'ziga ilmas kishi.

Vah, bu ne g'aflatki inson –
Ko'ksida tutmish Vatan,
Kim Vatan ichra Vatanning
Shukrini qilmas kishi.

Yurt nedir, yurt dog'i nedir,
Yurtdan ayrilgan bilar,
Anglaguvchi yurt firoqin
Yurtda topilmas kishi.

Ey, vatandoshim, eshit
Bobur-u Furqat nolasin,
Besabab anduh tig'ida
Bag'rini tilmas kishi,

Bilma, farzandim, Vatan hajrini,
Lek qadrini bil –
Kim Vatan qadrini bilmas,
Angla, komilmas kishi!

Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st!

SEN DAVLATSAN, AZIZ VATANDOSH!

Do'stim!
Sen o'zni ko'p xokisor tutma,
Ojiz bandaman, deb egib yurma bosh.
Yurtning egasisan, zinhor unutma,
Sen o'zing davlatsan, aziz vatandosh.

Mustaqil, mo'tabar mamlakat – sensan,
Mamlakatda oliy mashvarat – sensan,
Xalqsan, hukumatsan, saltanat sensan,
Sen o'zing davlatsan, aziz vatandosh.

Panada turmoqning fursati emas,
Bu tuproq faqirlar turbati emas,
Sohib bo'l, davlatning murvati emas,
Sen o'zing davlatsan, aziz vatandosh.

Diyonatli o'tgan nasl-u nasabing,
Nohaqlikka bardosh bermas asabing,
Keragida bo'lsin, qahring, g'azabing,
Sen o'zing davlatsan, aziz vatandosh.

Yurt farzandi asli o'zi yurt bo'lur,
Ko'zi chaqnoq bo'lar, qalbi o't bo'lar,
Qatorda nori bor Vatan but bo'lar,
Sen o'zing davlatsan, aziz vatandosh.

Men deb ko'krak kerib yurguvchi o'zing,
Yurtga soqchi bo'lib turguvchi o'zing,
Buyuk kelajakni qurguvchi o'zing,
Sen o'zing davlatsan, aziz vatandosh!

BIR NIHOL

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada,
Bu nihol nomini Yaxshilik ata.

Niholing yoniga bir gul ekib qo'y,
U gulning ismini Go'zallik deb qo'y.

Gul-u niholingga baxsh etib hayot,
Suv ber va bu suvga Mehr deb qo'y ot.

Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,
Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st!



Qulluq qil demasman,
Yurt tuprog'in o'p,
Unga qullar emas, fidolar kerak.
Uning sen-u mendek shoirlari ko'p,
Buyuk elga endi daholar kerak.

Qaddingni baland tut,
Bo'lma sarta'zim,
Cho'qqi bo'lolmasang, mahkam qoya bo'l,
Pillapoya bo'ldim senga, azizim,
Sen ham gal kelganda pillapoya bo'l.

SENINGDIRMAN, VATAN!

Vatan, to tanda jonim bor,
Seningdirman, seningdirman,
Tanim xok o'lsa ham sen yor,
Seningdirman, seningdirman.


Jahon kengdir, falak kengdir,
Yurak kengdir, chu sen borsan,
Seningsiz ikki dunyo tor,
Seningdirman, seningdirman.

Menga begona ellarda nasib gar
O'lsa yuz rahat
Chekay bag'ringda ming ozor,
Seningdirman, seningdirman.

Agar shodliklaring ozdir,
Meningdiansan, meningdiansan,
Magarkim g'amlarim bisyor,
Seningdirman, seningdirman.

Bugun bor, ertaga yo'q jismim,
Va lek ruhim uchun mangu
Sening mangu'liging darkor,
Seningdirman, seningdirman.

Sening ishqing bilan yondim,
Ketar jonimda bu otash,
Seningdirman, yana takror,
Seningdirman, seningdirman.



O'zbek xalqi azaldan mehmondo'stligi, bag'rikengligi va mulozamatli ekani bilan ajralib turadi. Yurtimizdagi mehmon kutish tarixi uzoq yillarga borib taqaladi. Bunda viloyatlarning urf-odatlarini, an'analari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda mehmondo'stlik an'analari

viloyatlardagi farqlar va o'xshashliklar



Qoraqalpog'istonda mehmonni qo'noq deb atashadi. Qoraqalpoqlar qo'noqlarni o'zgacha hurmat bilan qarshi olishadi. Qo'llariga suv quyib, to'rga boshlashadi. Dasturxonon non, qatlama, bo'g'irsoq, shirinliklar, meva-cheva, go'sht va baliqli yeguliklar o'rin oladi. Mezbenni xijolatga qo'ymaslik uchun hadeb dasturxonon undayverilmaydi. To'y-tomosh va odatiy mehmondorchilikda ikki xil ovqat tortiladi. Birinchisiga asosan palov yoki qovurdoq, ikkinchisiga, albatta gurtik (*bashbarmaq*) beriladi. Shuningdek, qoraqalpoqlar mehmonni durama (*qiymalangan go'sht va xamir bo'laklari*) milliy taomi bilan siylashlari mumkin. Taomlar yeb bo'lingach, tovoq olish odati bo'ladi. Ya'ni uyning kelini yoshi ulug' mehmonlarning yonidagi idishlarni olib, ostonada ta'zim qilib chiqib ketadi. Dasturxonon qo'l tortilgach, suv keltirilib, qo'llar chayiladi.

Xorazmdagi xonadonga tashrif buyurgan mehmon, albatta, bu yerning non-tuzini totib ketishi shart. Agar shoshayotgan bo'lsa, uyga kirishga ko'nmasa, bir burda non tishlab ketadi. Dasturxonon o'tirgan mehmonlarga ortiqcha mulozamat qilinmaydi, ular kirib kelgach, bir marta "Olinglar!" deyilgach, mehmonlar tortinmay dasturxonon qaraydilar. Mezbenni ortiqcha urintirmaslik uchun mehmonlarning har biriga alohida choynakda choy uzatiladi, ular o'zlarini istagan vaqtda piyolaga to'ldirib quyib ichaveradilar. Nonni ham ko'pincha mehmon ushatadi, ammo faqat o'ziga yarasha, ortiqcha bo'laklarga bo'linmaydi. Taomdan oldin va keyin qo'l chayiladi. Ko'pincha mehmonlarga tuxumbarak, palov, yog'li patir taqdim etiladi. So'ngra tarvuz, qovun so'yiladi. Fotiha qilingach, mehmonlar kuzatib qo'yiladi.

Buxoroliklar uyga kelgan mehmonni dasturxonon taklif qilishi bilan "Og'zingizni shirin qiling" deb mulozamat qilishadi. Mehmon ham bu gapdan so'ng biror konfet, shirinlikdan totinadi. Dasturxonon chaq-chuqlar: sho'rdanak, no'xat, mayiz, yong'oq, xolva likopchalarni bezaydi. Ko'pchilik bo'lsa xona bo'ylab uzun ko'rpachalar va dasturxonon yozilib, yerga joy qilinadi. Avvaliga mezbon hamma bilan alohida hol-ahvol so'rab chiqadi. So'ngra choy uzatiladi. Katta patir nonlarni sindirib, mehmonlar yoniga qo'yiladi. Taomlardan ko'pincha no'xat (*balaza*) sho'rva, go'sht va kartoshkali dimlama, qaynatilgan chuchvara tortiladi. Dasturxonon, albatta shirinlik va salqin ichimliklar bo'lishi kerak. Mehmonlardan birortasi o'rnidan qo'zg'algach, u uchun alohida fotiha qilinadi.

Navoiyda ham mehmonlarni qarshi olish Buxoro odatlariga o'xshab ketadi. Mehmon uyga taklif etilgach, shirinliklar, qand-qursdan totinib, ermak qilgan chaq mezbon bilan maroqli suhbat qurishi mumkin. Bu yerda sizni osh, sho'rva, xamir ovqatlar bilan siylashadi. Mehmondorchilik vaqtida kelinlar, qizlar ham ayol mehmonlar bilan o'tirib chaqchaqlashishi mumkin. Mehmon, albatta dasturxonon nasibasini yeb bo'lgach, so'ng ularga ruxsat beriladi. Nasibasini chala yeyish hurmatsizlik sanaladi.

Samarqand ahli ham mehmondo'st xalq. Eng avval dasturxonon non va choy qo'yiladi, keyin quruq mevalar, qand-qurs, bichak, salatlar dasturxonon joy oladi. Undan keyin ovqat suziladi, ko'pincha samaqandcha mazali osh, manti, kabob yoki sho'rva. Mezbon nonni sindirib, choy quyib, "Oling-oling"lab mulozamat ko'rsatadi. Samarqand noni va patiri, g'ilmindi nomli o'ziga xos taomi mehmonlarga manzur keladi. Mehmonlar asosan ko'k choyni ma'qul ko'radi, taomdan keyingi choyni o'zidan so'ng mevalar qo'yiladi, shirinliklar tanovul qilinadi. Mehmon ketishni ixtiyor qilsa, ko'p kuttirmay, fotiha qilinadi va iliq xayrlashiladi.

Qashqadaryo va Surxondaryoda mehmon uchun eng avval ko'k choy hozirlanadi, bu arzim odat katta hurmat belgisi. Dasturxonon yong'oq, mayiz, yaxna taomlar o'rin oladi. Oldinlari vohada mehmon uchun osh damlanar edi, hozir esa asosan go'shtli taomlar: tandir, jiz, kabob tortiladi. Suyuq taom deyarli pishirilmaydi. Xonadon sohibida qo'y-uloq topilmasa, tovuq so'yib bo'lsa-da, mehmonni yaxshi kutib oladi. Xoh kichik, xoh keksa bo'lsin, mehmon qo'zg'alishi oldidan dasturxonon mezbonning fotiha o'qishi odobsizlik sanaladi. Odatda, yoshi kichik bo'lsa ham, ketish oldi fotihani mehmon - kelgan kishi o'qishi shart. Agar bu odat buzilsa, mehmonning dili og'riydi va qaytib bu xonadonga mehmonga kelmasligi ham mumkin...

Jizzaxda mehmonlar, albatta uyga qo'l yuvib kiradi, buning uchun ko'rinarli joyga obdasta, sochiq qo'yib qo'yiladi. Ayol mehmonlarga alohida, erkak mehmonlarga alohida dasturxonon tuzashadi. Hatto bolalarni ham alohida joyga olib, oldilariga yegulik-ichgulik qo'yishadi. Quyuq-suyuq taom degan tushuncha asosan katta ziyofat, to'ylarda bo'ladi, boshqa paytlari faqat bitta taom: asosan sho'rva, osh, beshbarmaq mehmonlar taomi hisoblanadi. Ayol mehmonlar tugun-tog'ora bilan kelishmagan bo'lsa ham, "Quruq qo'l bilan ketmang", deb hech bo'lmasa, cho'ntagiga shirinliklar solib jo'natishadi. Jizzax dasturxononida, yilning qaysi mavsumi ekanidan qat'i nazar, albatta biror ho'l meva bo'lishi kerak.

Sirdaryoda ham erkak va ayol mehmonlar alohida xonalarda o'tiradi. Lekin bolalar ular bilan o'tiraverishadi. Uy bekalarini gurung berib o'tirishadi, kelin-qiz, juda bo'lmasa, yosh qo'shni ayollar xizmatda bo'lishadi. Sirdaryolik mezbonlar ko'pincha mehmonlarni osh, dimlama, baliq bilan siylashadi. Xamirli taomlar qilinmaydi, lekin pishiriq bo'lishi shart. Tarvuz-qovunlarni mehmonlar o'zlariga yarasha kesib olib, tanovul qilaveradilar.

Toshkent shahrida mehmon kutish iltifot, mulozamat va hurmat bilan amalga oshiriladi. Mehmon kelishini oldindan ogohlantirib qo'yadi yoki taklif etiladi. Mehmon kelguncha dasturxonon, albatta bezatilgan bo'ladi. Toshkentliklar ko'pincha to'satdan mehmon kelganda shoshib qolmaslik uchun mehmonxononini doim qand-qurs bilan bezab qo'yadi. Mehmon stol-stulga o'tirgach, avvalo yarimlatib choy uzatiladi. Choy uzatishni kelinlar va qizlar amalga oshirib, bunda piyola barmoq uchida noziklik bilan taqdim etiladi. Piyola bo'sh shashi bilan darhol to'ldiriladi va yana ehtirom bilan uzatiladi. Kelin deyarli o'tirmaydi, doim xizmatda turadi. Odatga ko'ra, mehmonlarga birinchi somsa tortiladi. Undan so'ng sho'rva, achchiq-chuchuk, keyin palov taqdim qilinadi. Iloji bo'lsa, palov laganda emas, har bir mehmonga alohida kosaga solinadi. Shuningdek, katta dasturxonlardan pista-bodom, shokolad, oqqand, bargak, norin, qovurma chuchvara, turli salatlar o'rin oladi. Qoshiq, vilka, likopcha, bokallar chiroyli tartibda yaltirab turishi bekaning dididan darak beradi. Taomlanib bo'lgach, suhbatlashib o'tiriladi. Xizmatdagi kelin yoki qizlar tez-tez "Xush kelibsiz!" iborasini takrorlaydi. Mehmon ketar chog'i duoga qo'l ochib fotiha qilingach, mezbonlarning bari o'rinlaridan turadi. Mehmon olib kelgan tog'ora o'rni to'ldirib qaytariladi. Kelinlar mehmonning poyabzalini ostonaga chiroyli qilib terib qo'yishadi.

Vodiy ahli yurtimizdagi eng mehmonnavoz xalq, desak, yanglishmaymiz. Farg'ona, Namangan va Andijonda mehmon kutish va kuzatish bir-biriga o'xshab ketadi. Vodiyda avvalo, kelgan mehmonning qo'lga mezbonning o'zi obdasta keltirib suv tutadi, toza sochiq beriladi. Yumshoq ko'pracha va paxmoq bolish to'shalgan xontaxtali dasturxonon to'riga taklif etiladi. Ayollar alohida, erkaklar alohida xonaga o'tirg'iziladi. Yoshi ulug'lar duoga qo'l ochib, mehmonlarga "Xush kelibsiz!" deb mulozamat qilinadi. Ayollar uzoq vaqt hol-ahvol so'rashadi. Mehmonlar dasturxonon o'tirishlari bilan "Qani, oling!" deya boshlangan mulozamat ular o'rnidan turgunga qadar davom etadi. Sababi "Olib o'tiringlar" deyilmaguncha mehmon dasturxonon qo'l uzatmaydi. Non dasturxonon to'liq sindirib qo'yiladi. Xonadon kelini doim yelib-yugurib xizmatda bo'ladi, choy sal so'vib qolsa, yangi damlanadi, asosan ko'k choy ichiladi. Odatga ko'ra, avval suyuq, so'ng quyuq, taom tortiladi. Mehmonlarga asosan sho'rva (*yoki mastava*) hamda osh pishiriladi. Osh bilan, albatta vodiycha shakarob tortiladi. Ba'zi tumanlarda mehmon dasturxononidan qatiq o'rin olishi shart. Mehmon ketamiz desa ham uni ozroq o'tirishga undashadi, uzoq "muzokara"dan so'ng nihoyat ularga ruxsat beriladi. Uy eshigigacha kuzatib qo'yiladi va albatta tez-tez kelib turishga taklif qilinadi.

Viloyatlardagi mehmon kutish odati geografik joylashuvga qarab bir-biriga o'xshab ketadi. Qo'shni viloyatlarda uyg'unliklar, bir-biridan uzoq viloyatlarda esa farqlar mavjud. Qaysidir hududdagi mehmon kutish odati boshqa joydagi odatga ko'ra hurmatsizlik sanalishi ham mumkin. Ko'plab badiiy asarlarimizda, filmlarimizda, spektakllarimizda o'zbek xalqining mehmon kutish odatlari tasvirlab beriladi. Mehmonnavozlik milliy qadriyatlarimizning bir qismidir. Undagi yaxshi odat va udumlar hozirgacha davom etib kelyapti.

Sport inson salomatligini mustahkamlovchi, uni har tomonlama chiniqtirib, jismoniy imkoniyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri. Harbiy xizmatchilar uchun esa sport jangovar-xizmat vazifalarini samarali bajarishga ko'maklashuvchi, mustahkam iroda, yengilmas kuch-qudrat va sabot manbaidir.



Yuksak faxr va



iftixor namunasi

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari ham sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlash bilan birga ko'plab sport turlari bilan muntazam ravishda shug'ullanib kelayotganlari sababli mamlakatimiz hamda xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan musobaqalarda qatnashib, yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Xususan, joriy yilda Qirg'iz Respublikasining Issiqko'l shahrida sportning universal jang turi bo'yicha Osiyoning 6 ta davlatidan jami 360 nafardan ortiq sportchi o'zaro bellashgan Osiyo kubogi bahslarida ham O'zbekiston terma jamoasi tarkibida DXX Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilari munosib ishtirok etdi.

Musobaqalar davomida sportchilarimizning yuksak iqtidor va mahorati, murabbiylari bilan birga o'tkazgan tinimsiz mashqlari o'z so'zini aytib, III darajali serjant Sabohat Xolmatova

57 kg vazn toifasida har ikkala "klassik" va "layt" yo'nalishlarida ham chempionlik shohsupasidan joy olgan bo'lsa, kontrakt bo'yicha oddiy askarlar – M. Qayumov 90 kg, X. Lolayev 85 kg va S. Mahmudov 70 kg vazn toifasida "layt" yo'nalishida oltin medal bilan taqdirlandi.

Quvonarlisi shundaki, mazkur musobaqada tajribali sportchilardan tashkil topgan O'zbekiston terma jamoasi umumjamoa hisobida faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

– Bunday yuqori natijaga faqat tinimsiz mehnat va mashqlar yordamida erishish mumkin. Chunki boshqa davlatlar vakillari ham juda kuchli bo'lgani uchun musobaqalar nihoyatda shiddatli kechdi. Finalda raqiblarimni qiyinchilik bilan bo'lsa-da yengib, "klassik" va "layt" yo'nalishlarida g'oliblikni qo'lga kiritdim.

Birinchi bo'lib onamga qo'ng'iroq qildim va g'alaba qozonganimni aytdim. Davlatimiz bayrog'i ko'tarilib, madhiyamiz yangraganida esa qalbimdan kechgan hislarni so'z bilan ifodalashim qiyin. Bugun biz sportchilarga yaratilayotgan sharoitlar va imkoniyatlardan unumli foydalanib, janglarda yuqori natijalarga erishishga va hamisha zafar quchib qaytishga va'da beramiz, – deydi III darajali serjant Sabohat Xolmatova.

Albatta, Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarayotgan bunday mahoratli sportchilarimizning erishayotgan yutuqlari ularning ota-onalari hamda yaqinlari qatorida barchamizga yuksak faxr va iftixor tuyg'ularini bag'ishlaydi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



NOTARIAL PALATA VAKILLARI

bilan uchrashuv

Mudofaa vazirligi va Notarial palata o'rtasidagi hamkorlik bo'yicha imzolangan memorandum ijrosini ta'minlash maqsadida Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda soha vakillari ishtirokida yig'ilish hamda sayyor qabul tashkil etildi.



Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi Notarial palatasi boshqarmasi, Nukus shahrida xususiy amaliyotlar bilan shug'ullanuvchi notariuslar, shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi, Nukus harbiy prokuraturasi vakillari hamda Shimoli-g'arbiy harbiy okrug mutaxassislari, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirok etdi. Yig'ilishda Mudofaa vazirligi va Notarial palata bilan hamkorlikda tayyorlangan "Notarial tasdiqlangan hujjatlarga tenglashtiriladigan vasiyatnomalar, ishonchnomalar va



arizalarni rasmiylashtirish bo'yicha uslubiy qo'llanma"ning taqdimoti hamda notarial hujjatlarni rasmiylashtirish, muammoli masalalar bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Ta'kidlash joizki, qo'llanma Fuqarolik kodeksi, "Notariat to'g'risida"gi qonun va boshqa qonunchilik hujjatlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, unda harbiy okrug (birlashma) qo'mondonlari, harbiy qism komandirlari, muassasa va oliy harbiy ta'lim muassasalarining boshliqlari tomonidan tasdiqlangan

vasiyatnomalar, ishonchnomalar va arizalarni rasmiylashtirish tartibi va mansabdor shaxs faoliyatida ular bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayrim holatlarga batafsil tushuntirishlar berib o'tilgan.

Yig'ilishda Notarial palataning vazifalari, funksiyalari, davlat bojlari hamda notarial harakatlar bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish haqida so'zlab berildi. Notarial palataning Qarshi tumani hududiy bo'limi xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariusi notarial harakatlarni amalga oshirish bo'yicha yuzaga kelayotgan muammoli savollar, ularning qonun doirasidagi yechimlarini tushuntirdi.

Yakunda harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining murojaatlari tinglanib, individual tartibda savollariga batafsil ma'lumotlar berildi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Yoshlarga oid davlat siyosati – amalda

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahrida joylashgan harbiy qismga birlashtirilgan, 1- va 2-sektor tomonidan otaliqqa olingan turli toifadagi yoshlar ishtirokida ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.



Tadbirning badiiy qismi harbiy qism madaniyat markazida davom ettirildi. Unda polkovnik Jur'at Yaqubov harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yurt himoyachilari erishayotgan yutuqlarga zamin bo'layotganini ta'kidladi. Qo'mondon bilan suhbat yoshlarning harbiylik kasbiga qiziqishini yanada oshirdi. Yurtimiz posbonlari tomonidan

OCHIQ ESHIKLAR KUNI

Harbiy qismga kelgan yoshlar harbiy orkestr jamoasining musiqiy sadolari ostida kutib olindi. Qo'mondonlikda barpo etilgan "Adiblilar bog'i", sport majmuasi, oshxona bilan tanishgan ertamiz egalari bu yerda yurt himoyachilari uchun barcha qulayliklar, zarur sharoitlar yaratilganiga guvoh bo'ldi. Qo'mondonlikdagi harbiy tarix muzeyida esa ular sohaning rivojlanish tarixiga oid ma'lumotlar bilan tanishdi. Yunusobod tumani prokuraturasi va Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida o'tkazilgan tadbirda yoshlar ishtirokida arqon tortish, turnikda tortilish, armrestling kabi sport musobaqalari tashkil etildi.

sahnalashtirilgan "Jadidlar", "Buyuk siymolar" nomli sahna ko'rinishlari, turli targ'ibot videoroliklar va harbiy orkestr jamoasining Vatanni madh etuvchi kuy-qo'shiqlari ijro etildi.

Yakunda sport musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlar qo'shinlar qo'mondoni tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Mehmonlar uchun harbiy qism oshxonasida harbiy taomlar tayyorlanib, tanovul qilish uchun dasturxonaga tortildi. Bu kabi tadbirlar yoshlar qalbida harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tanlov



ENG ILG'ORLAR bellashdi

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahrida joylashgan harbiy qism madaniyat markazida "Eng yaxshi kutubxonachi" va "Eng ilg'or madaniyat markazi boshlig'i" ko'rik-tanlovlarining qo'mondonlik bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda harbiy qismlardan saralangan harbiy xizmatchilar uchta shart, ya'ni "Xizmat faoliyati bilan tanishtirish", "Sohaga oid me'yoriy hujjatlar talablari to'g'risida nazariy bilimlarni tekshirish", "Kutubxonada/madaniyat markazida o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbir reja-ssenariysini tuzish" bo'yicha bellashuvga kirishib, hakamlar hay'ati tomonidan adolatli hamda shaffof baholab borildi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, "Eng ilg'or madaniyat markazi boshlig'i" tanlovida kichik serjant G'olibjon Azimjanov (Toshkent viloyati), "Eng yaxshi kutubxonachi" yo'nalishida esa kichik serjant Abbasxon Safaraliyev (Toshkent viloyati) g'olib deb topildi va tanlovning yakuniy bosqichida qatnashish yo'llanmasini qo'lga kiritdi. G'oliblar qo'mondonlik tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.



kompyuterdan qanday uzib qo'yish kerakligi haqidagi katta muammoga duch keladi. Bolalarning ko'p vaqtlarini kompyuter olamiga bag'ishlashi ularning organizmida ba'zi fiziologik o'zgarishlarga, hatto jiddiy kasalliklarga olib kelishi hech kimga sir emas. Tezda holdan toyish, umurtqaning qiyshayish holatlari, bosh miya va tanada qon aylanishining buzilishi, ruhiy toliqish va tez asabiylashish holatlari kuzatiladi. Eng asosiysi, insonning ko'rish qobiliyati pasayadi. Kompyuter o'yinida g'alabaga intilayotgan bola o'z maqsadiga erishmaguncha soatlab harakat qiladi. Bu undagi xudbinlikni (*egoizm*) kuchaytiradi. Televizor yoki kompyuter ekranidan chiqayotgan sun'iy nur ko'zga zararli ta'sir etadi.

Eng xavfli – bolalarning qiziqish doirasi torayadi, o'zining shaxsiy olamini yaratishga intilish hamda real borliqdan uzoqlashish holari vujudga keladi.

masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan yoshlar hisoblanadi. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasligi kerak. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin.

Bunga nimaning hisobidan erishamiz? "Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi Prezidentimiz. Jumladan, yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish

VIRTUAL O'YINLARGA QARAMLIK VA ULARGA QARSHI KURASH

Ta'lim sohasining mutaxassisi sifatida davrimiz kichkintoylarining kompyuter dasturlari va mobil telefonlari funksiyalarini juda tez o'zlashtirib olishlarini ko'rib, hayratlanganlarni ko'p uchrataman. Kompyuter o'yinlarini bir ko'rishdayoq tushunib, berilib o'ynayotgan bolakaylar kattalarni ham hayron qoldiradi, ham tashvishga soladi. Shunday bo'lsa-da, ko'pchilik farzandlariga go'daklik chog'idayoq elektron o'yinchoq olib beradi. Turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan bunday o'yinchoqlarni bugungi kunda yurtimizning istalgan nuqtasidan topish mumkin.

Zamonaviy axborot texnologiyalari bugun ko'pchilikning uyidan joy olgan, ulardan voz kechib bo'lmaydi. Chunki virtual olam odamni, ayniqsa yoshlarni ohanrabodek o'ziga tortadi. To'g'ri, zamon bilan hamnafas bo'lish kerak, aks holda, taraqqiyotdan ortda qolib ketish hech gap emas. Ammo tanganing ikki tomoni bo'lganidek, zamonaviy texnologiyalarning ham salbiy oqibatlari borligini unutmaslik lozim. Ming afsuski, bolalar o'zlarining beg'ubor va takrorlanmas bolalilik degan bebaho dunyosini virtual olamga almashtirib qo'yimoqda.

Shu narsa aniq: kompyuter o'yinlariga qaramlik mavjud. Qanday qilib kompyuter o'yinlariga qaramlikning oldini olish mumkin? Najotni qayerdan izlash kerak? Buning biror chorasi bormi? **Bu savollarga javob berishdan oldin quyidagilarni bilib olaylik:**

1. Kompyuter o'yinidan chalg'ishni istamaslik.
2. Eyforiya yoki shunchaki kompyuterda va o'yin davomida o'zingizni yaxshi his qilish.
3. Kompyuterda o'tkazadigan vaqtni rejalashtirmaslik.
4. Kompyuterda o'tirib, uy va ish vazifalari, o'qishlar, kelishuvlar, rejalashtirilgan uchrashuvlar haqida unutish.

5. Qurilmalar va kompyuter dasturlarini doimiy yangilash uchun katta pul mablag'lari sarflash.

6. Uyquga, gigiyenaga, sog'liqqa e'tibor bermaslik, o'yinga imkon qadar ko'proq vaqt sarflash.

7. Odatiy ovqatlanishdan bosh tortish, kompyuter oldida tartibsiz ovqatlanish.

8. Psixostimulyatorlarni suiiste'mol qilish: kofe, turli energetik ichimliklar.

9. Hech bo'lmaganda biror narsani tushunadigan har bir kishi bilan kompyuter o'yinini muhokama qilishning obsessiv istagi.

O'yinlarning salbiy oqibatlari farzandlarimizning ruhiyatiga ham ta'sir qilmoqda. Kompyuter nuri nafaqat bolalarni, hatto kattalarni ham ruhan, ham jismonan toliqitiradi. Afsuski, bola kerakli fiziologik quvvatni texnika yonida soatlab o'tirishi natijasida yo'qotadi. Natijada u so'lg'in, jizzaki, odamovi bo'lib qoladi. Bolalar uchun kompyuter o'yinlarining zarari ayniqsa sezilarli bo'lib, ular orasida o'smirlar alohida xavf guruhidir.

Bir necha kun ichida ularning ruhiyati o'yinlarning salbiy ta'siriga berilib ketadi va ota-onalar farzandini

Kattalarning gapi, nasihati ularga xuddi ortiqcha gapdek tuyuladi va qanday bo'lmasin, o'z so'zini o'tkazishga harakat qiladilar. Atrofdagilarga bemehr bo'ladi. U o'yinda dushmanni o'ldiradi. Natijada hayotda odamlarga befarq bo'lib qoladi. Ularga maxluq sifatida qaraydi. Internet klublarida yoshlar ayni o'qib ilm oladigan paytida vaqtlarini bekorchilik o'yinlarga, ijtimoiy tarmoqlarda mutlaqo notanish shaxslar bilan tanishishga sarflayotgani tashvishli holat.

Kompyuter o'yinlariga qaramlikni davolashning faqat bitta usuli bor, ammo bu oson ish emas. Qaram odamni kompyuter o'yinlaridan bir necha daqiqada chalg'itishingiz mumkin, shunchaki u bilan hayotning ma'nosi borasida suhbatni boshlash va uning bu boradagi fikrlarini diqqat bilan tinglash. Uning e'tiborini savollar bilan jalb qilish orqali siz uni asta-sekin qimor o'yinlaridan chiqarishingiz mumkin.

Kompyuter o'yinlariga qaram bo'lgan odam virtual olamda yashaydi, faqat vaqti-vaqti bilan oflayn rejimga o'tadi. Ayniqsa, o'quvchi-yoshlar uchun bilim olish, maktabga borish, sport bilan shug'ullanish, uy ishlariga qarashish kabi vazifalar ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Bu esa yoshlarning aqlan va jismonan rivojlanishiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi.

Jumladan, Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda **"Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart"**, degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilik ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim


masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratildi. Bularning barchasi yoshlarning virtual olamdan oqilona foydalanishiga zamin yaratmoqda.

Inson ilm, aql, tajriba va farosatda boshqalardan ustun bo'lishi kerak. U ishlarning qaysi biri foydali, qay biri zararli ekanini oldindan ko'ra bilishi lozim. Agar siz kompyuterda uzoq vaqt o'tirsangiz, o'yin o'ynasangiz, individualligingizni yo'qotishingiz mumkin. Agar doimo virtual olamda yo'qolib qoladigan bo'lsangiz, birinchi navbatda, o'zingizni baxtdan mahrum qilasiz. Shuning uchun har narsada me'yorni unutmasligingiz kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, agar siz o'yinga o'yin sifatida qarasangiz, u jiddiy xavf tug'dirmaydi. Aksincha, oqilona yondashuv bilan u sizga foydali narsalarni ham o'rgatishi mumkin.

Dilorom HAYDAROVA,
Qo'qon davlat pedagogika
instituti o'qituvchisi





**– Voy baraka topkur-ey!
Meni esdan chiqarmabsanda-a?
Balki, ammam kelganimni
bila turib, nega o'tmaydi, deb
ginalagandirsan ham.**

Ko'rganda kulgichlari yoyilib ketadigan Xadicha ammasi uni xushhol qarshiladi. To'ladan kelgan, oppoq yuzli, qora sochlari tovonini o'padigan bu ayolni dilkash deb bo'lmasdi. Uning quvnoqligi bir lahzada g'ussali nigohlar bilan almashinardi. Boqishlari har qancha teran bo'lmasin, bu holat hamsuhbatining ko'nglini ezib yuborardi.

– Men ham qadr sinayman. Qani, jiyanlarimning oldida qancha qiymatim bor ekan deb o'ylayman.

Bahriddin hovli ayvonidagi supaga horg'in cho'kkan ayolning yelkasidan beozor quchdi.

– O'tir, – dedi unga amma qavatidan joy ko'rsatib. Keyin jim qoldi. O'ychan nigohini bir nuqtadan uzmasdi. Negadir og'ir xo'rsindi.

– Nega xo'rsinasiz? – Bahriddin ammasiga hamdard tikildi. – Nimani o'ylayapsiz?

– Bolalarimni, – javob qildi u shikasta ovoza, – tug'ilmay nobud bo'lgan go'daklarimni. – Bahriddin ammasining aljirashga o'xshash javobidan seskangandek unga ajablanib qaradi.

– Sen ham bu xotinning esi og'ib qolibdi-ku, deb o'ylayapsanmi? Bilmadim, balki, shundaydir. O'zim esa... qattiq uyqudan cho'chib uyg'onib, shirin tushimdan ajrab, aldanib qolganimga kuyaman... O'zimni bolasi ko'p ayoldek his etardim. Keyin bilsam, qup-quruq, timoqsiz o'tayotgan ekanman. To'lg'oq azobini, suqsurday o'g'il tug'ganimni tush ko'rayotganimni keyin bilib qoldim. Uyli-joyli qilaman, nevarali bo'laman deganimda... bolamni yer tortib ketsa bo'ladimi! Toki yer tortmaguncha har kecha uni tush ko'rar, quvonardim. Bolamga aza tutib ko'k kiydim... Hamma mendan o'zini olib qocha boshladi. Yaqinlarim yuz o'girdi. Men faqat tushlarimda baxt topardim.

– Bo'ldi, kuyinmang, – Bahriddin uning qo'lini qisdi. – O'tib ketadi.

– O'tmay qayoqqa borardi. Dunyosi tush, ayqash-uyqash tushsh...

Oraga zil-zambil sukut cho'kdi.

– Suvga oqizishdi umrimni... – amma mungli ovoza so'zlandi. – O'n sakkizimda amakimning o'g'liga uzatishdi. To'yim kuni nikohdan o'tishga kuyovning o'miga kuyov jo'rasi hamrohlik qilib bordi... Allaqayoqdan paydo bo'lgan kuyov nikoh daftariga qo'l qo'yib, suratga tushdi-yu, yana g'oyib bo'ldi.

– Molbozorga ketdi, – dedi ishshayib kuyov jo'rasi. Allakimning puli bilan korzinkasi qolib ketgan ekan. Eltib berarmish... Keyin bilsam, u menga ko'ngilsiz ekan. Erga tegish nimaligini bilmaydigan g'o'r qiz edim. Kelin bo'lish shunday bo'ladi-da, deb qaynona-qaynotamning xizmatida yelib-yuguraveribman. Er bo'lmish esa chimildig'imni ham ochib qaragan emas. Bor mashmalaridan bir yil deganda xabar topgan enam meni o'sha kuniyoq uyga olib ketdi. Otam jiyanining uylanishini kutib, meni uzatmasdi. Oradan o'n to'rt yil o'tib, erim uylandi. Xushro'y, suyuqoyoq xotinga... Men esa kelinlarim, ukalarimning xizmatida sochim supurgi, qo'lim kasov... umrim o'tganini sezmayman. Kelinlarimning ko'zi

yoriganda o'zim azob chekayotgandek qiynalar, topgan-tutganimni do'xtirlarning suyunchisi-yu bolaning ko'lliklariga sarf etardim. Ishdan qaytsam, yigirma besh bola "amma", "xola", deb yugurardi. Shunaqangi osilardilarki, hatto yiqitib yuborardilar. Hatto belimni mayib qilib qo'yishlariga ozgina qolgan.

Mo'ylovi sabza urganlari-yu bo'yi yetganlarini qo'yaver. Sevgi hasratlaridan tortib qaysiga qanaqa ichkiyim yetishmayotganigacha bilaman. Ularga qarashaman deb o'lib-tirilaman, – amma uzun tin olib, og'ir xo'rsindi. – Rahmatli singlimning besh sag'irini deb kimlarga teng bo'lmadim. Xotining makriga ishongan kuyovim meni uyidan haydab soldi. Qaytib qadam bosma, dedi. Sag'irlar chirqillab qoldi...

Ertalab "bugun yakshanba, men ham oyoq uzatib bir orom olsam-chi", degan o'yda soat o'nga qadar to'shakdan qo'zg'almay yotaveribman. Eshikni taqillatmay, Nodir mo'raladi. "Soat o'n ikkiga qadar uxlayverasizmi endi? – deydi. – Bundoq qo'zg'alib, kelinlaringizga qarashing. Murabbo qaynatyapti. Qishda o'zingiz ham yeysiz", emish. "Go'ringa olib ketamanmi murabbongni?" dedim. Shu bahona ichimdagilarni to'kib soldim.

"Sen men bilan aytishib qolasan-u, uyingga kirib, televizor ko'rsan. Bolalarimni erkalarim, xotiningni suyasam. Bor dilxiraliklaring unut bo'ladi. Xo'sh, men-chi? Tuni bilan bolishimni ho'l qilib yig'layman. Nega ukam bunaqa gapirdi, deya g'amga botaman. O'ylayverib, hasratim ado bo'lmaydi. Bilaman, mening baxtsizligimga na sen, na xotining aybdor... Men dunyodan uning yaxshi-yomon ne'matidan allaqachon ko'nglimni uzib qo'yganman..." dedim.

Keyin bildim, uydagilarning kam-ko'sti, ayblarini yopadigan etaklaridan boshqa narsa emas ekanman. Bo'lmasa, mening ham tug'ib olish, baxtli bo'lish imkonim bor edi. Men esa to'fondak bostirib kelayotgan hislarimni chegirib yashadim. Huvullagan xona, uzun, uyqusiz tunlar sillamni quritdi, jonimga tegdi bari... Bu dard-iztiroblar suyak-suyagimga singib ketgan.

Bahriddin ammasining qo'lini hamon qo'yvomas, beixtiyor silab-siypalardi.

– Hammasi yaxshi bo'ladi, – gap topmay g'o'ldiradi u. Sho'rpehona ayolga shu bilan dalda bermoqchiga o'xshardi. Keyin aytishga so'z topmay, jim qoldi. Noquvay sukunatni yana ammaning dardchil ovozi bo'ldi.

– E... qurib ketsin hammasi, – og'ir xo'rsindi juvon. – Tanasi boshqa dard bilmas. Ming qilganda ham o'zingda bola bo'lmagandan keyin... Dunyodan qo'limni yuvib, qo'ltig'imga urganman. Qishlog'imizda yetmishdan oshgan bir qari qiz bo'lardi. U katta kalishli oyoqlarini zo'rg'a sudrab bosar, qabristonni o'to'lanlardan tozalar edi. Jiyda tagida tunab, tug'ilmagan bolasiga alla aytganini ko'rganimda seskanib ketganman. Xudo unga na zurriyot, na bola boqib o'stirish uchun boshpana ato etgan ekan...

Ammasi uzun tin olib, tinka-madori qurigandek og'ir "uf" tordidi... Keyin esa... Uning ko'ksidan yurak-bag'irini o'rtab yuboradigan mung chiqdi. U alla aytayotgandi...

Mayago'zal CHORIYEVA

QIRMIZI

olmalar

**Shapkaliklar ovulga
iz solib, mo'yabliklar
ro'yxatda bo'ldi. Ovulning
halovati qochdi.**

– Gultosh, hoy Gultosh! – pastqam eshikdan hovliqib-engashib Ovodon xola ko'rindi.

– Govmishingni tunashdimi, nima balo? – Gultosh ona tizzalab, ko'zlari achishib-yoshlanib o'choq tagidagi cho'g'ga puf-pufflardi.

– Qanaqa gov mish! Qahramoningni olib ketishdi, – Ovodon xola qirmizi olmalar solingan do'ppini o'choq boshiga qo'ydi.

– Oyjamolga terib kelayotgan ekan...

– Hoy, Ovodon! Jin-pin urmaganmi seni? Olib ketishdi deganing nimasi?

Kim olib ketadi? Nimaga olib ketadi?!

– Gultosh ona o'tirgan ko'yi o'choqqa suyanib qoldi.

– Oyjamolga nima deyman? – ona o'rmdan turaman deganida qo'llari turtindi.

O'choq boshidan tushib do'ppi tuproq bo'ldi. Olmalar dumaladi, tuproq bo'ldi.

O'choq tagi gurullab-gurullab yondi. Oyjamolning-da ichi o'choq bo'ldi – ko'ksi yondi. Xabarni eshitib edi, to'lg'andi. Devor suyab ingrandi.

Tug'di.

Yengillashdi.

Qizlik bo'ldi.

O'zi bo'lmay qoldi...

Gultosh ona gul bo'lmadi, tosh bo'ldi.

Momo bo'ldim deb edi, momo bo'lmadi,

tag'in ona bo'ldi. Yodgorasini ovutdi.

Yodgorasi bilan ovundi. Yig'lasa, qo'shni eshikka chopdi. O'zidan yoshni sizladi.

"Emizib bering", deya ko'krak so'rab chiqdi.

– Momojon, anavi Soraga oyisi kapalakli etikcha olib beribdi. Mengayam.

– Yodgoram mening, – momo qizchani tizzasiga oldi, – novvotim o'zimning. Yaqinda o'g'lim qaytadi.

O'shanda senga Soranikidan ham chiroo'yli etikcha olib beradi.

– Yo'q, – qizcha oyoq tirab oldi, – u kishi kelganida kapalakli etikchada chiqmoqchiman!

Momo nabirasini quchog'iga olib, yupatgan bo'ldi – sochlarini siladi,

qo'lchalaridan o'pdi, quchdi. Ich-ichidan toshib kelayotgan yig'ini arang bosib, pichirladi:

– Tushimga kiribsan, bolam!

Gultosh momo tizzasida uxlab qolgan Yodgorani ko'rpachaga yotqizib, o'zi tashqariladi. Izg'irin momo bilan chunonam o'chakishdi: yuzlaridan chimdib, qadamini qiyinlatdi. Kumush halqali eshikka yaqinlashgani sayin momoning qadamlari shundog'am sekinlashdi. Lip-lip yoniq derazani o'ylanib chertdi. Ayb qilgandek orqaga tisarildi.

– Kim yana? – ichkaridan kelgan do'rilloq tovush Gultosh momoning quloqlariga yot emasdi.

– ... Men! Men, boy bolam. Menman.

Tortinib-qimtinib turgan momoni shopmo'ylov, gerdaygan, saxiy, kalta semiz kishi qarshiladi.

– Yana nima deysiz, momoy?

– Boy bolam...

– Eh momoy, momoy! O'g'lim qaytsin deb tilayvering!

– Duogo'ying bo'lay, boy bolam.

Momoning boy bolasi baxmal yonchig'iga qo'l soldi.

Momoning oyoqlari deganiga kirmadi. Kavushlari deganiga yurmadi. Toyib ketdi. Yiqildi. Tizzasasi bilan

tushdi. Mushtumidagi tangalar sochildi. Cho'kkalab oldi.

– Ey Xudo, Xudojon! – momo yerlarni paypaslay ketdi. Qorlarni, loylarni paypaslay ketdi. Barmoqlari avval qoraydi, so'ng qizarib, keyin ko'kardi. Momo ana shunda boshidagi ro'molini yulqib oldi. Yerga otmoqchi edi, Qahramoni olib bergani yodiga tushdi, ko'zi qiymadi. Uyiga qo'llari pinjida, oqsoqlanib kirib keldi. Qanday kirib keldi, o'zi-da bilmadi. Qumg'onni suvga to'ldirib, o'choq boshiga bordi. Bahonada isinib olamanmi deb o'yladi.

Yodgora sandal yonida mudrab yotar, tarq-turuqdan uyg'onib ketdi. Qo'rqdi.

Ko'rpasiga biqindi. Tashqariga chiqib qolgan oyoqchalarini ko'rpa ichiga tortib oldi. O'zi esa ko'rpa ostidan ko'z ko'rarga kichkina tuynuk yasadi. Tuynuk oldilab o'tib-qaytayotgan kimsaning momosi ekanini payqagach, boshini chiqardi:

– Kapalakli etikcha olib keldingizmi?

Gultosh momo eshitmadimi yo'zini eshitmaganga soldimi, miq etmadi.

– Momojon, kapalakli...

– O't ketibdi! Eshitdingmi, o't ketibdi!!!

Etik chiqaradigan zavutga o't ketibdi. Yot endi! – momoning iyagi qaltiradi.

Yodgora cho'chib tushdi. Yig'lab yubordi.

Gultosh momo sandal yonidagi burchakka tiqildi...

Bahor. Simyog'ochga ilib qo'yilgan qutichadan ovoz keldi:

"Urush tugadi!"

Gultosh momo sandiq kovladi. Boy bolasi bergan tangalarni axtardi. Tugunga qo'l soldi. Tugunda nelar bo'ldi: do'ppi, olma qoqi, uch-to'rt tanga bo'ldi. Momo do'ppini to'yib-to'yib siladi, qoqilarni to'yib-to'yib hidladi. Tangalarni kaftiga siqib, bozor ketdi.

Momo yo'l qaradi. Yo'l poyladi.

Ko'rpachalarning paxtasini titib, savadi. Qahramonidan darak kutdi. Paxsaga bosh suyab-bosh suyab kutdi. Bu dam momoning yuzlariga nur yog'ib turar, kutilmaganda nurga soya tushdi. Nur yo'qoldi. Soyaning bir qo'li yo'q edi. Soya bir qo'li bo'ldi.


– ...


Momoning qo'llari yonga osilib tushdi. Qo'lidagi do'ppi-da poyiga tushdi. Hov mahal olmalarni qoqi qilib edi, ular-da to'kildi...

– Kavushim chiroyli-a, momojon?! – qizcha poygakda sochilib yotgan qoqilarni bir qo'llab terib, ko'zlariga surayotgan, o'payotgan, duv-duv yosh to'kayotgan notanish odamni ko'rib, bo'sag'a ortiga turdi. Eshik qiyasidan tikildi. Qiyadan tovush keldi:

– ... Siz momomning bolasimisiz?

Akmal MUROD





MOHIR MERGANLAR aniqlandi

Namangan shahrida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan yoshlar o'rtasida sportning pnevmatik quroldan o'q otish turi bo'yicha O'zbekiston kubogining ikkinchi bosqich musobaqasi o'tkazildi.

Unda respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan 80 ga yaqin sportchi 10 metrlik masofadan pnevmatik miltiq va pistoletlardan nishonga o'q uzdi. Qizg'in va murosasiz kechgan kubok musobaqasi quyidagi natijalar bilan yakunlandi.

Miltiqdan o'q otish bo'yicha "VP-6" sinfida. O'g'il bolalar o'rtasida:

- 1-o'rin: Ilnur Xolmirzayev (Namangan v.);
- 2-o'rin: E'zozbek Rahimjonov (Namangan v.);
- 3-o'rin: Saidakbar Yakubov (Namangan v.).

Qizlar o'rtasida:

- 1-o'rin: Sabina Tolibjonova (Farg'ona v.);
- 2-o'rin: Zuhra Qurbonaliyeva (Toshkent v.);
- 3-o'rin: Sogdiana Bugrova (Andijon v.).

Pistoletdan o'q otish bo'yicha "PP-3" sinfida. O'g'il bolalar o'rtasida:

- 1-o'rin: Rafet Kerimov (Namangan v.);
- 2-o'rin: Behruz Xodjiyev (Namangan v.);
- 3-o'rin: Fazliddin Farhodov (Toshkent v.).

Qizlar o'rtasida:

- 1-o'rin: Alina Tarasova (Namangan v.);
- 2-o'rin: Veronika Merkulova (Farg'ona v.);
- 3-o'rin: Irina Tarasova (Namangan v.).

Jamoa hisobida:

- 1-o'rin: Namangan viloyati;
- 2-o'rin: Toshkent viloyati;
- 3-o'rin: Farg'ona viloyati jamoalari.

Joriy yilgi kubok musobaqalarining yakuniy natijalariga ko'ra, quyidagilar O'zbekiston kubogi g'oliblari deb topildi.

Miltiqdan o'q otish bo'yicha "VP-6" sinfida. O'g'il bolalar o'rtasida:

- 1-o'rin: Ilnur Xolmirzayev (Namangan v.);
- 2-o'rin: Ruslan Azatov (Toshkent v.);
- 3-o'rin: Husniyor Sattorov (Toshkent v.).

Qizlar o'rtasida:

- 1-o'rin: Zuhra Qurbonaliyeva (Toshkent v.);
- 2-o'rin: Nozima Husanboyeva (Toshkent v.);
- 3-o'rin: Odinabonu Mirzatillayeva (Toshkent v.).

Pistoletdan o'q otish bo'yicha "PP-3" sinfida. O'g'il bolalar o'rtasida:

- 1-o'rin: Rafet Kerimov (Namangan v.);
- 2-o'rin: Behruz Xodjiyev (Namangan v.);
- 3-o'rin: Hojiahrar Karimjonov (Toshkent v.).

Qizlar o'rtasida:

- 1-o'rin: Irina Tarasova (Namangan v.);
- 2-o'rin: Diana Abdumo'minova (Toshkent v.);
- 3-o'rin: Seville Kerimova (Namangan v.).

Jamoa hisobida:

- 1-o'rin: Namangan viloyati;
- 2-o'rin: Toshkent viloyati;
- 3-o'rin: Farg'ona viloyati jamoalari.

Musobaqaning yopilish marosimida g'oliblik va yuqori natijalarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom, esdalik sovg'alari hamda kubogi bilan taqdirlandi.

**O'zbekiston Respublikasi
mudofaasiga ko'maklashuvchi
"Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati**

Qaror va ijro

AHOLI FAROVONLIGINI

ta'minlash yo'lida

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari – O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumanida o'rganishlar olib borildi.

Xususan, "Ishga marhamat" monomarkazida yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunarga o'qitish uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishildi. "YUSTEX LLC" tekstil korxonasi faoliyati, unda mahalliy aholi bandligini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratildi.

Tuman tibbiyot birlashmasida kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlari, favqulodda vaziyatlar bo'limida esa shaxsiy tarkib va maxsus texnikalar shayligi o'rganildi. Birlik va Sobir Rahimov mahallalari yettilik tizimi faoliyati natijalariga ahamiyat berildi.

O'rganilgan obyektlarda energiya tejamkor uskunalardan foydalanish va faoliyatga doir boshqa masalalar yuzasidan tavsiyalar berib o'tildi.

**Adliya kapitani Mahmud ARTIKOV,
Respublika Harbiy prokuraturasi
bo'lim katta harbiy prokurori**

Sayyor qabul

Murojaatlar tinglandi

Xalq bilan bevosita muloqot ularning muammolarini o'rganish va tezkor hal etish borasida muhim omillardan hisoblanadi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari mas'ullari hamkorligida mamlakatimizning olis hududlarida ommaviy sayyor qabullar o'tkazib kelinmoqda.

Shunday tadbirlardan biri Jizzax viloyatining Baxmal tumanida tashkil etildi. Unda harbiy xizmatchilar va

xodimlar, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar tinglandi.

Jarayonda kelib tushgan 54 ta murojaatdan 16 tasi joyida ijobiy hal etildi, 29 tasiga huquqiy tushuntirish berildi, 9 tasi nazoratga olindi.

**Adliya polkovnigi
Sherzod XAYITOV,
Jizzax harbiy prokurori**



Yong'indan ogoh bo'lishga chorlov

Nukus garnizonidagi harbiy shaharchada garnizon yong'in nazorati inspeksiyasi hamda Nukus shahri favqulodda vaziyatlar boshqarmasi yong'in-qutqaruv qismi mutaxassislari ishtirokida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun profilaktik tadbir tashkil etildi.



Unda mutaxassislar tomonidan harbiy shaharcha aholisiga yozning issiq kunlarida yong'in kelib chiqishining asosiy sabablari, elektr va gaz jihozlari ishlatish qoidalari, qo'lbola uskunalarning xavfsizlikka

javob bermasligi, bolalarning qarovsiz holda qolishi sabab yong'in kelib chiqishi mumkinligi haqida tushuntirish berib o'tildi. Xas-cho'plar, axlatlarni yoqish orqali ularni yo'q qilish nafaqat ekologiyaga, balki moddiy boyliklar

hamda inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligi ta'kidlandi.

Yong'in o'chirish va qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borish uchun mo'ljallangan o't o'chirish uskunalarini, maxsus texnikalardan foydalanish

bo'yicha mahorat darsi o'tkazildi.

Tadbir ishtirokchilari mavzuga doir savollariga mutaxassislardan to'laonli javoblar oldi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida



O'QUV JARAYONI ZAMON TALABLARI ASOSIDA

Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan joylarda "Biz bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari hamda uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Qashqadaryo viloyati kengashi tasarrufidagi Shahrisabz avtomobil maktabi jamoasi tomonidan ham mudofaa, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi, mahallalar hamda Ma'naviyat targ'ibot markazi shahar bo'limlari bilan hamkorlikda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. – Muhim sana munosabati bilan o'tkazilayotgan bunday tadbirlar yoshlarning qalbida ona Vatanga

muhabbat va sadoqat hissini, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi, – deydi avtomobil maktabi boshlig'i Mansurbek Rustamov. – Bu esa, o'z navbatida, yoshlarimiz kamolotida alohida o'ringa ega. Shu tufayli avtomaktabda yoshlarning jismoniy, ma'naviy-ruhiy jihatdan yetuk bo'lishlariga muhim e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, yoshlarning jismoniy faolligini oshirishga ko'maklashish maqsadida ularga sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, endilikda avtomaktabda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash ishlari ham zamon talablari asosida tashkil etildi.

Yaqinda mazkur avtomobil maktabiga 8 toifali litsenziya topshirildi. Zamonaviy ko'rinishdagi avtodromga ega bo'lgan o'quv maskanida turli toifali haydovchilar tayyorlanmoqda. Buning uchun 10 ta yengil, 5 ta yuk o'quv avtomobilidan amaliy mashg'ulotlarda unumli foydalanilmoqda. O'quvchilar sig'imi esa 250 nafarni tashkil qiladi. Shu kunlarda kunduzgi va kechki o'quv jarayonlarida har bir toifa uchun 5 nafardan o'qituvchi bo'lajak haydovchilarning yetarli darajada bilim olishlari uchun ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlarni olib bormoqda.

Akbar ALLAMURODOV



Mikroto'ldinli pechni tozalaymiz

Aziz bekajonlar, uy sharoitida mikroto'ldinli pechni tozalash uchun qanday vositalardan foydalanish mumkin yoki mumkin emas? Bu haqda bugun sahifamizda to'liq ma'lumot berishga harakat qilamiz.

Mikroto'ldinli pechning har bir xonadonda o'z o'rnini bor. Shoshilinchda taomni isitishda eng katta ko'makchi. U bizning qimmatli vaqtimizni tejaydi.

Undan foydalanganda ovqat yog'i sachrashi, taom to'kilishi muqarrar. Yoqimsiz hid, turli oziq-ovqat bo'laklari, yog' qatlami ta'bingizni xira qilibgina qolmay, uning ishlash muddatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Asosan pechning aylanma patnisi, devorlari, eshikdagi shaffof oynasi tozalanadi.

Mikroto'ldinli pechni yog'dan tozalash uchun uyda mavjud vositalardan foydalanishingiz mumkin: suv, iste'mol sodasi, limon, sirka, kislotasi, ammiak, apelsin po'stlog'i.

1. Eng oson usullardan biri pechning barcha qismlarini suv bilan yuvishdir.

Suv bilan yangi yog' to'kilgan qatlamlarni tozalash mumkin.

Buning uchun pechga mo'ljallangan maxsus idish, 200 ml suv va latta kerak bo'ladi.

Tozalash usuli: idishga suv solib, uni mikroto'ldinli pechga yuqori quvvatga 10 daqiqa qo'yamiz. Pech o'chgach, suvni olishga shoshilmaymiz, yana 10 daqiqa kutamiz. Shundan so'ng suvli idishni pechdan olib, tozalab artib olamiz.

2. Mikroto'ldinli pechni tozalashning eng oddiy va samarali usullaridan yana biri iste'mol sodasi bilan tozalash.

Buning uchun pechga mo'ljallangan maxsus idish, 2 stakan suv va 3 osh qoshiq iste'mol sodasi, qog'ozli sochiq yoki yumshoq gubka kerak bo'ladi.

Tozalash usuli: idishga iste'mol sodasini solib, suv quyamiz va eriguncha aralashiramiz. Aralashmani 10-15 daqiqa pechga qo'yamiz. O'chgach, yana 5 daqiqa qoldiramiz. So'ngra nam gubka yordamida artib olamiz.

3. Pechni limon bilan tozalash noxush hidlarni ham bartaraf etadi.

Buning uchun pechga mo'ljallangan maxsus idish, 2 stakan suv, bitta limon, latta kerak bo'ladi.

Tozalash usuli: idishga suv, limon suvini siqib aralashiramiz va qolgan limonni bo'laklarga bo'lib solamiz. Idishni mikroto'ldinli pechga 15 daqiqaga qo'yamiz. Qizig'ach, yana biroz vaqtga qoldiramiz. Keyin idishni olib, yaxshilab artib olamiz.

4. Agar mikroto'ldinli pechni anchadan beri tozalamagan bo'lsangiz, turib qolgan yog'li qatlamni sirka yordamida tozalash yaxshi natija beradi.

Buning uchun pechga mo'ljallangan maxsus chuqur idish, 1-2 stakan suv, 3 osh qoshiq sirka, latta kerak bo'ladi.



Tozalash usuli: sirka va suvni idishga solib aralashiramiz va 10 daqiqa pechga qo'yamiz. O'chgach, darhol idishni olishga shoshilmang, yana 10 daqiqa tursin. So'ngra yumshab qolgan yog'li qatlamni osongina artib olish mumkin.

5. Pech devoriga yopishgan yog'ni limon kislotasi yordamida yumshatish mumkin. Shu bilan birga, noxush hidni

ham yo'qotadi.

Buning uchun pechga mo'ljallangan maxsus chuqur idish, 1-2 stakan suv, 2 osh qoshiq limon kislotasi va gubka kerak bo'ladi.

Tozalash usuli: limon kislotasini suvda eritib olamiz va 15 daqiqa pechga qo'yamiz. Yana 10 daqiqa kutamiz. So'ngra gubka yordamida suv bilan tozalab olamiz.

6. Nashatir spirti tozalash ishimizni

birmuncha osonlashtiradi.

10 foizli nashatir spirti, rezina qo'lqop, suv va latta kerak bo'ladi.

Tozalash usuli: qo'lqopni kiyib, gubka yoki lattaga nashatir spirtini quyib va pech devorlarini artib chiqing. 6-7 soatdan keyin yoki ertasiga artib olishingiz mumkin. Toza suv bilan artishni unutmang.

7. Apelsin po'stlog'ini tashlab yuborishga shoshilmang. Mikroto'ldinli pechni tozalashda u katta yordamchi.

Buning uchun maxsus chuqur idish, 1-2 stakan suv, apelsin po'stlog'i va latta kerak bo'ladi.

Tozalash usuli: idishga apelsin po'stlog'ini solib, ustidan qaynoq suv quyamiz. Biroz vaqtga pechga qo'yib, o'chgandan so'ng 10 daqiqa ochmay turamiz. Keyin idishni olib, erigan yog' qatlamini osongina tozalab olamiz.

Mikroto'ldinli pechni tozalashda bug'dan foydalangandan so'ng qisqa tutashuvning oldini olish uchun elektr tarmog'idan uzib qo'ygan ma'qul.

Qurilmaga suv quyib yuvmang, chunki isitish elementlariga zarar yetkazib qo'yishingiz mumkin.

Qattiq va metall gubkalar hamda cho'tkalar bilan yuvmagan ma'qul. Bu pech yuzasiga zarar yetkazadi.

Turli kimyoviy vositalar va tez parchalanadigan melaminli gubkalardan ham foydalanmang. Chunki zaharli moddalar taomga tushish ehtimoli katta.

Umuman olganda, oshxonangizdagi mikroto'ldinli pech sizni uzoq yillar davomida ishingizni osonlashtirishini xohlasangiz, oddiy qoidalarga amal qiling:

- me'yoridan ortiq tozalash qurilmaga ziyon yetkazishi mumkin, shu sabab haftada bir yoki bir oyda 2 marta yuvish tavsiya etiladi;

- muzlagan mahsulotni eritish funksiyasidan tez-tez foydalansangiz, chuqur idish ishlatganingiz ma'qul. Eritish jarayonida suyuqlik sachrashining oldini oladi;

- taomni isitishda har doim maxsus qopqoq yordamida ustini yoping;

- har gal foydalanganingizdan so'ng pechni albatta nam latta bilan artib qo'ying;

- pech eshigini ochib, shamollatib turish hidlanishdan saqlaydi.

Pazanda

Qovunning foydali xususiyatlari



Yurtimizda yetishtiriladigan qovunlar o'zining betakror mazasi, foydaliligi, hidi va uzoq muddat saqlanishi bilan butun dunyoga mashhur. Ular juda sershira bo'lib, tarkibida 92 foizgacha suv saqlaydi. Bundan tashqari, glyukoza, organik kislotalar, vitamin A, C, B₁, B₂, PP, P va E karotin, foliy kislotasi bor. Qovunning 100 grammida

organizmning C vitaminiga bo'lgan sutkalik talabini ta'minlaydi.

Qovun tarkibida saratonga qarshi kurashuvchi moddalar mavjud. Insult va yurak kasalliklari xavfini kamaytiradi, tanani quvvatlantiradi. Qovun tarkibidagi vitaminlar terini taranglashtiradi, ichaklarni tozalaydi, qabziyatni davolaydi. Undagi minerallar oshqozon bilan bog'liq muammolarga barham beradi.



QOVUNLI MUZQAYMOQ

Qovunli muzqaymoqni tayyorlash uchun atigi 3 ta masalliq kerak bo'ladi. Buni albatta, tayyorlab ko'rishingiz kerak!

Kerakli masalliqlar:

250 g qovun;
200 ml qaymoq (35 foizli);
80 ml quyultirilgan sut.

Tayyorlanishi: qovunni blender yordamida pyure holatiga keltiramiz. Alohida idishda qaymoq bilan quyultirilgan sutni mikser bilan ko'pirtiramiz. Qaymoq aralashmasiga qovunli pyureni aralashiramiz. Massani qoliplarga solib, muzlatkichga qo'yamiz. Yoqimli ishtaha!

FAQAT BIR KISHI

yashaydigan shaharlar

Dunyo shiddat bilan rivojlanib borar ekan, katta-katta shaharlar aholisi ham doimiy ravishda o'sib boradi. Odamlar tabiiy ravishda yaxshiroq va qulayroq hayot izlab, megapolislarga oqib keladi. Ammo shunisi qiziqki, dunyo xaritasida haqiqatan ham faqat bir kishi yashaydigan aholi punktlari bor.



Yangi Zelandiya. Kass shahri

Bu manzilgoh XIX asrda u yerdagi oltin qazib oluvchilar tirikchiligini ta'minlash uchun qoramol boqish maqsadida qurilgan. Qulay geografik joylashuvdagi aholi punktida yo'l yotqizildi, otxona va mehmonxonalar qurildi, politiya idorasi va kutubxona barpo etildi. 1914-yilda u yerda temiryo'l stansiyasi paydo bo'ldi.

Yillar o'tib, qo'ychilikka ehtiyoj kamaydi, aholi yaqin atrofdagi shaharlarga ko'chib o'tdi. Kassda faqat bir temiryo'lchi qolib ketdi.

25 yildan ortiq vaqt davomida u temiryo'llarni boshqarib keladi, kichik golf maydonchasi va sayyohlar uchun mo'ljallangan bir nechta dam olish uylarini tartibga keltiradi, barni boshqaradi va musiqa sahnasini tozalaydi. Shuningdek, u har dam olish kunlari o'tkaziladigan kriket o'yinlari uchun javobgar hisoblanadi.



Yaponiya. Tomioka

Yaponiyaning Tomioka shahri 2011-yil mart oyida zilzila va sunami oqibatida vayron bo'lgan "Fukusima" atom elektrostansiyasi yaqinida joylashgan. Yaponiya hukumati zararlangan hududdagi Tomiokaning barcha aholisini majburan evakuatsiya qildi.

Atom elektrostansiyasiga 20 kilometr yaqinlikdagi hududda radiatsiya darajasi yuqori bo'lgan va u yerda yashash qat'iy man etilgan. Tomiokaning sobiq fuqarosi esa o'z uyiga qaytishga jiddiy qaror qiladi.

U o'z hayotini suv ta'minoti o'chirilgan Tomiokada umuman elektr energiyasiz o'tkazadi. 2017-yilga kelib Yaponiya hukumati aholiga o'z uylariga qaytish uchun ruxsat beradi. 2020-yilgi Olimpiya o'yinlari olovini Tomioka orqali o'tkazib ketish uchun marshrut qo'yilgan bo'lsa-da, shaharning ko'plab hududlari hanuzgacha tashlandiq holatda qolib kelmoqda.



Argentina. Vilya-Epekuen

1920-yilda Argentinadagi Vilya-Epekuen tuzli ko'l qirg'og'ida xuddi shu nomdagi kurort shaharcha tashkil etilgan. Ko'l shu daraja sho'r bo'lib chiqdiki, konsentratsiya bo'yicha u O'lik dengizdan keyin ikkinchi o'ringa qo'yildi.

1970-yilda aholisi 5 000 kishidan ko'proq bo'lgan shaharda odamlar mehmonxonalar, salonlar, muzeylar va hatto qassobxonalar ham ochdi. Shahar rivojlanishda davom etayotgan edi, biroq tabiiy ofat tufayli yengildi.

1993-yilda haddan tashqari ko'p yomg'ir yog'ishi ortidan mahalliy ko'l hajmi sezilarli darajada oshdi, suv sathi ko'tarilib, to'g'onni buzib yubordi, natijada shahar butunlay suv ostida qolib ketdi.

O'n besh yil davomida suv u yerni tark etmadi va faqat 2009-yilga kelib quruqlikda qishloq ko'rindi. Sobiq aholining hech biri sho'r shaharga qaytishga botinmadi, faqat 81 yoshli keksa kishigina o'z Vatanga qaytishga qaror qildi.



Chegaradagi Lorye

Lorye kichik aholi punkti bir vaqtning o'zida AQSh va Kanada chegarasida joylashgan hudud bo'lsa-da, u chegara bo'ylab aeroport, bojxona va avtomobil yo'llari cho'zilgan bir nechta muhim strategik funksiyalarni bajaradi.

Shahar o'tgan asrda Vashington shtatidagi amerikaliklar Kanada bilan chegarani tezda kesib o'tishlari va qo'shni davlatning ko'llari yonida joylashgan dala hovlilariga yetib olishlari uchun faol foydalanilgan. Bugungi kunda u yerda faqat bir kishi yashaydi. Aynan o'sha odam shaharning butun kichik infratuzilmasini kuzatib boradi.

Manbalar asosida
Dildora QO'CHQOROVA
tayyorladi.

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI